

IKKI MAMLAKAT O‘RTASIDAGI O‘ZARO MANFAATLI HAMKORLIK YANADA RIVOJLANAYOTGANI MAMNUNIYAT BILAN QAYD ETILDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 24-fevral kuni O‘mon Sultonligi tashqi ishlar vaziri Badr bin Hamad al-Busaidiyni qabul qildi.



Suhbat avvalida vazir davlatimiz rahbariga O‘mon Sultoni Haysam bin Toriq Ol Saidning samimiy salomi va maktubini yetkazdi.

Ikki mamlakat o‘rtasidagi o‘zaro manfaatli hamkorlikni yanada kengaytirish, eng avvalo, savdo-iqtisodiy va investitsiya-moliyaviy soha-lardagi sheriklik salohiyatini ro‘yobga chiqarish masalalari ko‘rib chiqildi.

Idoralararo va ishbilarmonlik aloqalari faol-lashgani mamnuniyat bilan qayd etildi. O‘zaro tovar ayirboshlash hajmi, qo‘shma korxonalar soni ortmoqda, ikki mamlakat yetakchi kompaniyalari ishtirokidagi biznes tadbirlari muntazam o‘tkazilmoqda.

O‘zbekiston — O‘mon investitsiya kompa-niyasi portfelini yangi kooperatsiya loyihalarini hisobiga kengaytirishga alohida e‘tibor qaratildi.

Joriy yil aprel oyida Hukumatlararo komissiyaning navbatdagi yig‘ilishi va qo‘shma biznes-forumi o‘tkazildi.

Bundan tashqari, parlamentlararo aloqalarni, madaniy-gumanitar almashinuvni rivojlantirish, to‘g‘ridan-to‘g‘ri aviaqatnovni yo‘lga qo‘yish muhimligi ta’kidlandi.

Mintaqaviy kun tartibi, shu jumladan, joriy yil may oyida Samarqand shahrida o‘tkaziladigan “Markaziy Osiyo — Ko‘rfaz davlatlari” muloqotining ikkinchi sammitiga tayyorgarlik yuzasidan fikr almashildi.

O‘ZA

POKISTON BOSH VAZIRI RASMIY TASHRIF BILAN O‘ZBEKISTONDA BO‘LADI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Pokiston Islom Respublikasi Bosh vaziri Shahboz Sharif 25-26-fevral kunlari rasmiy tashrif bilan mamlakatimizda bo‘ladi.

Bo‘ljak oliy darajadagi muzokaralar kun tartibidan O‘zbekiston — Pokiston strategik sheriklik va ko‘p qirrali hamkorlik munosabatlarini yanada rivojlantirish va kengaytirish masalalari o‘rin olgan.

O‘zaro tovar ayirboshlash hajmini oshirish, transport bog‘liqligini kuchaytirish va tranzit salohiyatini ro‘yobga chiqarish, yengil va charm sanoati, qishloq xo‘jaligi, farmatsevtika, elektrotexnika va iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida kooperatsiya loyihalarini ilgari surish borasidagi qo‘shma rejalar diqqat markazida bo‘ladi.

Madaniy-gumanitar va turizm aloqalarini faollashtirish masalalari ham ko‘rib chiqiladi. Xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan fikr almashiladi.

Sammit yakunida Qo‘shma dek-laratsiya va qator ikki tomonlama hujjatlar qabul qilinishi rejalashtirilgan.

Tashrifning ishbilarmonlik dasturi doirasida yetakchilar O‘zbekiston — Pokiston qo‘shma biznes-forumida ham ishtirok etadilar.

O‘ZA

HAYOT — HARA-KAT DEMAK

YOXUD “SOG‘LOM INSON — SOG‘LOM MILLAT” G‘OYASINING MOHIYATI NIMADA?

“O‘z vaqtida me‘yori bilan badantarbiya qilgan odamga dard yaqin yo‘lamaydi”, degan edi ulug‘ ajdodimiz Abu Ali ibn Sino. Ha, sport insonni jismonan baquvvat, ruhan tetik qiladi. Mamlakatimizdagi islohotlar Uchinchi Rennsans poydevorini barpo etishga qaratilgan ekan, sportga, sog‘lom turmush tarziga jiddiy e‘tibor berilishi ayni muddaodir.

Yurtimizda sportga qaratilayotgan e‘tiborning amaliy natijasiga joriy yilning 13-fevral kuni yana bir bor guvoh bo‘ldik. O‘sha kuni Prezidentimiz olimpiya va paralimpiya harakati, ixtisoslashtirilgan va ommaviy sportni yangi bosqichga olib chiqish hamda aholi jismoniy faolligini oshirish chora-tadbirlari bo‘yicha videoselektor yig‘ilishi o‘tkazdi.

Mamlakatimizda ilk bora Olimpiya va Paralimpiya o‘yinlariga tayyorgarlik bo‘yicha katta yig‘ilish o‘tkazilishi yangi O‘zbekistonda bunyod etish yo‘lida yangi bosqichga

chiqqanimizni anglatadi. Zero, taraqqiyot yo‘lidagi har bir o‘shish nuqtasida keyingi marra uchun aniq reja belgilab olinadi. Sohalarda tom ma’noda islohot o‘tkaziladi. Ularning qanchalik samarador bo‘lishi inson kapitali, sog‘lom jamiyatga bog‘liq. Shu sabab davlatimiz rahbari videoselektor yig‘ilishida “O‘z oldiga buyuk maqsadlar qo‘ygan xalq faqat sog‘lom va baquvvat bo‘lgan taqdiridagina ko‘zlagan marralariga erisha oladi”, deya ta’kidladi.

Davomi 5-betda

BOJXONA FAOLIYATINING TAKOMILLASHUVI EKSPORT VA IMPORTNING YAXSHILANISHIDA MUHIM

Prezident Shavkat Mirziyoyev 24-fevral kuni bojxona faoliyatini takomillashtirish va raqamlashtirishga oid taqdimot bilan tanishdi.

Mintaqaviy va xalqaro iqtisodiy aloqalarni yaxshilash maqsadida bu sohada ko‘p ishlar qilindi. O‘nga yaqin davlatlar bilan oldindan axborot almashinuvi yo‘lga qo‘yildi, bojxona rasmiylashtiruv va ma‘lumotlarni qayta ishlash markazlari tashkil etildi. 4 ta yirik bojxona postida terminallar qurildi, 20 dan ziyodi yangi uskunalar bilan ta‘minlandi. Tadbirkorlar uchun 35 ta axborot tizimi joriy qilinib, eksport jarayonlari 9 bosqichdan 3 bosqichga tushdi.

Bularning natijasida chegara orqali transportlar harakati 8 barobar ko‘payib, qariyb 5 milliontaga yetdi. Byudjetga tushumlar 9 barobar o‘shib, o‘tgan yili 63 trillion so‘mdan oshdi. Yuklarni rasmiylashtirish vaqti importda 3 soat, eksportda 20 daqiqagacha qisqardi.

Umuman, tizim soddalashtirilishi orqali 6 mingga yaqin eksportyor hamda 20 mingga yaqin importyorning sarf-xarajati va vaqti tejalgan. Xalqaro logistika reytingida bojxona ko‘rsatkichi bo‘yicha O‘zbekiston 140-o‘rindan 74-o‘ringa ko‘tarilgan.

Lekin hali raqamlashtirish, jarayonni tezlashtirish va qulaylashtirish bo‘yicha vazifalar ko‘p. Taqdimotda shu boradagi chora-tadbirlar ko‘rib chiqildi.

So‘nggi yillarda bojxona hududida qayta ishlash turlari kengaytirilgani samarasida bu tarzda eksport qilingan tovarlar ulushi o‘tgan yili 1 milliard dollardan oshgan. Bu tizimni yanada soddalashtirib, shu yilning o‘zida eksportni 1,5 milliard dollarga yetkazish mumkin.

Qo‘shni davlatlar bilan savdo va turizm aloqalari kengayib borayotgani tufayli chegaradagi yo‘lovchilar va avtotransport

oqimi kamida 2 karra oshishi kutilmoqda. Bu qo‘shimcha infratuzilma yaratib, postlarda o‘tkazuvchanlikni oshirishni talab qiladi.

Jumladan, xalqaro qatnovlarni ko‘paytirish maqsadida avtobuslarda ham aviareyslardagidek, yo‘lovchilar haqidagi ma‘lumotlarni oldindan olish tizimi ko‘zda tutilmoqda. Natijada avtobuslar chegaradan soddalashtirilgan tartibda o‘tkazilib, rasmiylashtirish vaqti 2 barobar qisqaradi. Shuningdek, eng yirik bojxona postlarida yengil avtomobil va avtobuslar uchun qizil va yashil yo‘laklar joriy qilish taklif etilmoqda.

Bojxona kuzatuvida sun‘iy intellektni keng qo‘llash masalasiga alohida e‘tibor qaratildi. Shu maqsadda Jahon banki mutaxassislari ko‘magida “xavf tizimi” takomillashtiriladi. Bu tizim moliyaviy barqarorlik, savdo tarixi kabi 122 ta mezon bo‘yicha tadbirkorlarning ishonchlilik darajasini baholaydi. Shuningdek, rentgen tasvirlari sun‘iy intellekt asosida tahlil qilinib, xavfli tovarlar avtomatik aniqlanadi.

Davlatimiz rahbari bu takliflarni ma‘qullab, sohada xalqimiz uchun yengilliklar yaratish, tadbirkorlar va turistlarga tezkor xizmat ko‘rsatish zarurligini ta’kidladi. Jahon savdo tashkilotiga a‘zo bo‘lish jarayonida bojxona qonunchiligini bunga to‘liq muvofiqlashtirish vazifasi qo‘yildi.

Bojxona instituti salohiyatini oshirish, sun‘iy intellekt, raqamli texnologiyalar, tahlila-tahlil bo‘yicha malakali kadrlar tayyorlash, dual ta‘limni kengaytirib, amaliyotni yaxshilash muhimligi qayd etildi.

O‘ZA



O‘ZBEKISTON HUDUDIDA DAVLATCHILIKNING SHAKLLANISHI

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz muqaddimasida “davlatchiligimiz rivojining uch ming yildan ziyod tarixiy tajribasi, shuningdek, jahon sivilizatsiyasiga beqiyos hissa qo‘shgan buyuk ajdodlarimizning ilmiy, madaniy va ma‘naviy merosi” alohida ta’kidlanadi.



O‘zbek xalqining kelib chiqishi, shakllanishi juda uzoq o‘tmishga borib taqaladi. Bu borada tarixchi, arxeolog, etnograf va boshqa soha olimlari ko‘plab izlanishlar olib borgan. Hali-hanuz xilma-xil fikrlar bildiriladi. Masalan, xalqimizning to‘liq shakllanishi antik davrda yuz bergan, deb aytiladi. Antik davr miloddan avvalgi IV — milodiy IV asrlarga to‘g‘ri kelib, hozirgi O‘zbekiston hududida o‘sha davrga oid yuzga yaqin manzilgoh topilgan.

Amudaryo sohilidagi Baqtriya, Sug‘diyona, Marg‘iyona, Parfiyona va Qadimgi Xorazmda ajdodlarimiz — sug‘dlar, xorazmiylar, baqtriylar, saklar yashagan. Sirdaryo havzasida esa qadimdan turkiyzabon aholi istiqomat qilgan. Bu miloddan avvalgi uch mingyilliklarga to‘g‘ri keladi.

Xalqimizning kelib chiqishi tarixini, ajdodlarimiz o‘tmishini gazetxonlar, umuman, keng ommaga yetkazish maqsadida “Yangi O‘zbekiston” gazetasida bugundan boshlab “Milliy davlatchiligimiz tarixidan” rukni ostida turkum materiallar berib boriladi.

Bu ruknda bir necha ming yilga borib taqaladigan o‘tmishimiz, tarixiy shaharlarimiz, osori atiqalarimiz, adolati va ilmi bilan dunyoni zabt etgan ulug‘ bobolarimiz haqida turkum maqolalar e‘lon qilish rejalashtirilgan.

Davlatimiz rahbari xalqimiz, xususan, yoshlarimizni davlatchiligimizning shonli 3000 yillik tarixi bilan tanishtirib borish muhim ahamiyatga ega ekanini doim ta’kidlab keladi. Ishonchimiz komikli, o‘zbek xalqi tarixi, ajdodlarimiz bosib o‘tgan shonli yo‘l haqidagi maqolalar ko‘pchilikda katta qiziqish uyg‘otadi va hech kimni befarq qoldirmaydi. Zero, donolarimiz aytganidek, tarixini bilmagan xalqning kelajagi yo‘qdir.

Davomi 3-betda



O‘ZBEKISTON – POKISTON: BARQARORLIK VA IZCHIL TARAQQIYOTNI TA’MINLASH BO‘YICHA STRATEGIK SHERIKLIKNI MUSTAHKAMLASH YO‘LIDA

25-26-fevral kunlari Pokiston Bosh vaziri Shahboz Sharif rasmiy tashrif bilan O‘zbekistonda bo‘ladi.

O‘zbekiston — Pokiston hamkorligining yaqin tarixiga to‘xtaladigan bo‘lsak, 1991-yil 20-dekabrda Pokiston O‘zbekiston mustaqilligini birinchilardan bo‘lib tan olganini, mamlakatlarimiz o‘rtasidagi diplomatik munosabatlar 1992-yil 10-mayda o‘rnatilganini ta’kidlash kerak.

O‘shandan beri O‘zbekiston va Pokiston o‘zaro hurmat va mustarak manfaatlariga asoslangan faol siyosiy muloqotni davom ettirib kelmoqda. Keyingi yillarda oliy darajadagi aloqalar faollashdi, buning natijasida tomonlar o‘rtasidagi munosabatlar strategik sheriklik darajasiga ko‘tarildi.

Xususan, 2021-yil 15-16-iyul kunlari O‘zbekistonga oliy darajadagi tashrif yakunlari bo‘yicha Strategik sheriklik munosabatlarini o‘rnatish to‘g‘risida Qo‘shma deklaratsiya hamda hamkorlikning rivojlantirish bo‘yicha kelgusi qadamlar to‘g‘risida Qo‘shma deklaratsiyani imzoladi. Mazkur tashrif va uning doirasida bo‘lib o‘tgan biznes-forum ikki tomonlama munosabatlarni rivojlantirish dinamikasiga, 10 ga yaqin hujjat imzolalanib, hamkorlik yo‘nalishlarini kengaytirishga, shuningdek, qo‘shma savdo va investitsiya loyihalarini amalga oshirish bo‘yicha kelishuvlarga erishishga kuchli turtki bo‘ldi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev 2022-yil 3-4-mart kunlari rasmiy tashrif bilan Pokistonda bo‘ldi. Tashrif davomida ikki davlat rahbarlari O‘zbekiston va Pokiston o‘rtasida Strategik sheriklikni rivojlantirish bo‘yicha kelgusi qadamlar to‘g‘risida Qo‘shma deklaratsiyani imzoladi. Mazkur tashrif va uning doirasida bo‘lib o‘tgan biznes-forum ikki tomonlama munosabatlarni rivojlantirish dinamikasiga, 10 ga yaqin hujjat imzolalanib, hamkorlik yo‘nalishlarini kengaytirishga, shuningdek, qo‘shma savdo va investitsiya loyihalarini amalga oshirish bo‘yicha kelishuvlarga erishishga kuchli turtki bo‘ldi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Shanxay hamkorlik tashkiloti, Islom hamkorlik tashkiloti, Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti va boshqa xalqaro tuzilmalar doirasida ham mamlakatlarimiz o‘rtasidagi aloqalar jadallik kasb etib, qo‘shma tashabbuslar amalga oshirilmoqda.

Shu o‘rinda 2022-yil 15-16-sentabr kunlari Samarqandda bo‘lib o‘tgan SHHT sammitida ishtirok etish uchun Pokiston Bosh vaziri Shahboz Sharif mamlakatimizga tashrif buyurganini ta’kidlash joiz. Tashrif doirasida Pokiston rahbarini O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev qabul qildi. Uchrashuvda davlat yetakchilari ikki tomonlama hamkorlikning barcha masalarini, birinchi navbatda, savdo-

iqtisodiy, investitsiya va transport-tranzit sohalarini ko‘rib chiqdilar.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning xalqaro tashkilotlar sammitlarida Pokiston rahbarlari bilan o‘tkazgan uchrashuvlari nafaqat ilgari erishilgan kelishuvlarga sodiqlikni mustahkamladi, balki O‘zbekiston — Pokiston strategik sherikligining barqarorligi va uzoq muddatli xarakteriga e’tibor qaratilayotganidan dalolatdir.

Siyosiy muloqotni mustahkamlashda parlamentlararo hamkorlik muhim o‘rin tutadi. Parlament diplomatiyasi doirasida ikki mamlakat vakillik organlarida do‘stlik guruhlari tashkil etilgan bo‘lib, ular savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar sohalarda ikki tomonlama aloqalarni kengaytirish va mustahkamlashga qaratilgan qonunchilik tashabbuslarini rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Parlamentlararo hamkorlik uchrashuvlar, o‘zaro tashriflar, xalqaro tadbirlardagi ishtirok orqali mustahkamlanyapti.

O‘zbekiston va Pokiston vazirlik va idoralari o‘rtasidagi konstruktiv munosabatlar, oliy darajada erishilgan strategik ahamiyatga ega qo‘shma loyihalarni tezkorlik bilan amalga oshirish imkonini beryapti.

Xususan, siyosiy muloqotni qo‘llab-quvvatlash uchun ikki mamlakat tashqi siyosat idoralari 2025-yil fevral oyida Toshkent shahrida sakkizinchi raundi bo‘lib o‘tgan ikki tomonlama siyosiy maslahatlashuvlar, shuningdek, yirik xalqaro tadbirlar doirasidagi muloqot mexanizmlaridan samarali foydalanmoqda.

Madaniyat, ta’lim, biznes, transport-logistika, huquq-tartibot, terrorizm va transchegaraviy jinoyatchilikka qarshi kurashish va boshqa sohalarda ham idoralararo hamkorlik samarali yo‘lga qo‘yilgani e’tiborlidir.

O‘zbekiston va Pokiston o‘z mintaqalarida muhim ishtirokchilar bo‘lib, salmoqli resurs va inson salohiyatiga ega. Mamlakatlarimiz ushbu salohiyatdan savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlikni kengaytirishda faol foydalanmoqda.

Pandemiya qaramay, mazkur sohadagi o‘zaro sheriklikni rivojlantirishda barqaror dinamika kuzatildi. Xususan, 2021-yilda o‘zaro tovar ayirboshlash hajmi 50 foizga oshdi. 2024-yilda o‘zaro tovar ayirboshlash hajmi 400 million dollarga yetdi va ikki davlat rahbarlari tomonidan yaqin kelajakda bu ko‘rsatkichni 500 million dollarga, istiqbolda esa 1 milliard dollarga yetkazish bo‘yicha belgilangan maqsadlarga yaqinlashdi.

Davlatimiz rahbarining 2022-yil mart oyida Pokistonga rasmiy tashrifi chog‘ida imzolangan Imtiyozli savdo to‘g‘risidagi bitim bo‘xona to‘siqlarini kamaytirish va ikki tomonlama tovar ayirboshlashni rag‘batlantirishda muhim qadam bo‘ldi.

Hududlararo miqyosda ishbilarmon doiralari vakillari o‘rtasidagi to‘g‘ridan to‘g‘ri muloqot ham faol rivojlanayotir. Bu to‘g‘rimachilik sanoati, qishloq xo‘jaligi, farmatsevtika va axborot texnologiyalari kabi yo‘nalishlarda qo‘shma korxonalar tashkil etishga xizmat qilyapti. Bugungi kunda O‘zbekistonda Pokiston kapitali ishtirokidagi 130 qo‘shma korxona bor. Pokistonning “Novugen Pharma”, “UP-Match”, “Pak-Merit Bleaching”, “Diamond Group” kabi yirik kompaniyalari bilan hamkorlikda yurtimiz hududlarida, xususan, Sirdaryo, Toshkent, Namangan viloyatlari va Toshkent shahrida investitsiya loyihalari amalga oshirildi.

Ikki mamlakat ishbilarmon doiralari o‘rtasidagi so‘nggi paytlarda kuzatilayotgan faol muloqot iqtisodiy sheriklik va hamkorlikni kengaytirishdan o‘zaro manfaatdorlik yuqori ekanini namoyon etadi.

Xususan, so‘nggi ikki yilda O‘zbekiston va Pokistonda o‘nga yaqin ikki tomonlama biznes-forumlari, B2B, G2D uchrashuvlari, sanoat hamda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ko‘rgazmalari va boshqa qo‘shma loyihalarni ishlab chiqishga qaratilgan iqtisodiy tadbirlar o‘tkazildi.

Ana shunday tadbirlardan biri 2024-yil iyun oyida Toshkentda O‘zbekiston — Pokiston biznes-forumi bo‘lib o‘tdi. Forum doirasida “Made in Pakistan” ko‘rgazmasi va transport-logistika forumi o‘tkazildi. Ko‘rgazmada Pokistonning to‘qimachilik, kimyo, farmatsevtika, tibbiyot, maishiy va elektrotexnika sanoati, qurilish materiallari va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchi 110 dan ortiq yetakchi kompaniyasi o‘z mahsulotlarini namoyish etdi. Biznes-forum yakunlari bo‘yicha qariyb 180 million dollarlik savdo-

investitsiyaviy shartnomalar imzolandi. Transport-logistika forumi doirasida hududlarimiz va mamlakatlarimiz o‘rtasida transport va yuk aylanmalarini faollashtirish, tashqi savdo operatsiyalari bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatuvchi kompaniyalar uchun chegara-o‘tkazish punktlarida “yashil yo‘laklar” yaratish, shuningdek, bo‘xona rasmiylashtiruv jarayonlarini raqamlashtirish masalalari muhokama qilindi.

2024-yil noyabr oyida Toshkent shahrida Savdo-iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy hamkorlik bo‘yicha O‘zbekiston — Pokiston hukumatlararo komissiyasining 9-yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. Uning doirasida O‘zbekiston — Pokiston biznes-forumi, shuningdek, G2B va B2B formatlarida uchrashuvlar uyushtirildi.

Bundan tashqari, o‘tgan yili noyabr oyi oxirida Pokistonning Lahor shahrida to‘qimachilik sanoati, charm va junni qayta ishlash, farmatsevtika, axborot texnologiyalari, maishiy texnika, oziq-ovqat, qog‘oz sanoati va boshqa sohalarda faoliyat yuritayotgan 60 dan ortiq tadbirkorlar ishtirokida biznes-forum bo‘lib o‘tdi. Tadbir davomida O‘zbekistonning “ArteI” va “Imzo” kompaniyalari vakillari o‘z mahsulotlari va sarmoyaviy takliflari taqdimotini o‘tkazdi. Pokistonlik sheriklar bilan maishiy texnika ishlab chiqarish va uchinchi davlatlarga eksport qilish bo‘yicha kelishuvga erishildi.

Joriy yil avvalida ham ikki tomonlama iqtisodiy munosabatlarni chuqurlashtirishga xizmat qiladigan bir qator tadbirlar o‘tkazilgani bilan yodda qoldi. Xususan, fevral oyida Pokistonning Lahor shahrida “Made in Uzbekistan” milliy sanoat mahsulotlari ko‘rgazmasi bo‘lib o‘tdi. Unda O‘zbekiston Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi rahbariyati boshchiligidagi 150 dan ortiq tadbirkorlardan iborat mamlakatimiz delegatsiyasi hamda Pokistonning 50 dan ortiq ishbilarmon doiralari vakillari ishtirok etdi.

Quvonarlisi, uch kun davom etgan ko‘rgazmada 80 mingdan ortiq kishi O‘zbekiston sanoat mahsulotlari va hamkorlik imkoniyatlari bilan tanishdi. Tadbir davomida 500 dan ziyod B2B uchrashuvlari tashkil etilib, ularda yangi savdo shartnomalarini tuzish va qo‘shma loyihalarni amalga oshirish masalalari muhokama qilindi. Ushbu ko‘rgazma yakunlari bo‘yicha umumiy qiymati 500 million dollardan ortiq 181 shartnoma imzolandi. Shundan 263 million dollari

eksport savdo shartnomalari, 236 million dollari import bitimlari hisobiga to‘g‘ri keladi.

Ikki mamlakatning iqtisodiy hamkorlik rivojiga ta’sir etuvchi asosiy omillardan yana biri bu — transport yo‘nalishi. Shu bois, O‘zbekiston ham, Pokiston ham transport-logistika sohasidagi aloqalarni jadallashtirishga alohida e’tibor qaratyapti.

Mamlakatlarimiz o‘rtasidagi madaniy-gumanitar munosabatlar O‘zbekiston va Pokiston xalqlarining mustahkam tarixiy aloqalari, Buyuk ipak yo‘lining umumiy madaniy an‘analari, islom sivilizatsiyasi, tarixiy shaxslar — Zahiriddin Muhammad Bobur va Boburiylar sulolasi vakillari merosi asosida rivojlanib kelmogda.

Bugungi kunda o‘zbek zaminida voyaga yetgan, buyuk saltanat, jumladan, zamonaviy Pokiston hududini barpo etgan Bobur hayotiga bag‘ishlangan badiiy filmini suratga olish bo‘yicha ijodiy hamkorlikka poydevor qo‘yilmoqda.

Mamlakatimizda 1991-yildan buyon madaniy-ilmiy tadbirlar, fan va madaniyat arboblari delegatsiyalari almashinuvini muntazam tashkil etuvchi “O‘zbekiston — Pokiston” do‘stlik jamiyati faoliyat ko‘rsatyapti.

Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida qariyb 75 yildan buyon urdu tili, adabiyoti va Pokiston tarixi bo‘yicha kurslar o‘qitilib kelinayotgani ikki davlat o‘rtasidagi madaniy aloqalarni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etyapti.

Pokistonda ham o‘zbek tili va tarixini o‘rganishga bo‘lgan talab keskin oshdi, ushbu yo‘nalishda loyihalar jadal amalga oshirilayapti. Qo‘shma madaniy tadbirlar, festivallar, ko‘rgazma va forumlar o‘tkazish muntazamlilik kasb etganini ta’kidlash kerak.

2021-yil fevral oyida Panjob universitetida xalqimizning buyuk ajdodi hayoti va merosini o‘rganish maqsadida Bobur merosi markazi ochildi. Peshovar universitetida esa Alisher Navoiy nomidagi markaz tashkil etilgan. Markaz Pokistonda o‘zbek madaniyatini yanada ommalashtirishga yaqindan ko‘maklashyapti.

Ikki mamlakat shaharlari o‘rtasida to‘g‘ridan to‘g‘ri havo qatnovlarining yo‘lga qo‘yilishi natijasida sayyohlar almashinuvi faollashdi. Pokistonda O‘zbekistonning muqaddas qadamlari va tarixiy obidalariga bo‘lgan qiziqish juda yuqori. Xususan, 2019-yil mart oyida Islomobodda O‘zbekiston

Turizm axborot markazi ochilgan bo‘lsa, 2020-yilda Pokistondagi Naqshbandiya tariqati yetakchisi shayx Muhammad Hassan Xasib ur-Rahmon O‘zbekistonning ushbu mamlakatdagi ziyorat turizmi bo‘yicha elchisi etib tayinlandi.

Madaniyatlararo muloqot ikki xalqning boy tarixi va merosiga bo‘lgan yuksak hurmat hamda qiziqishdan dalolat beradi.

Shuningdek, Islomobodagi Lok Vira amaliy san’at muzeyida 2022-yilda O‘zbekiston madaniyati va tarixiga bag‘ishlangan doimiy ko‘rgazma ochildi.

Mamlakatlarimizda o‘tkazilayotgan xalqaro tadbirlar — ko‘rgazmalar, sayyohlik yarmakalari, anjumanlar, madaniyat va kino kunlarida ishtirok etayotgan delegatsiyalar almashinuvi jadal tus oldi.

Pokistonlik san’at ustalari O‘zbekistonda o‘tkazilayotgan “Sharq taronalari”, maqom san’ati va baxshichilik san’ati kabi xalqaro festivallarda muntazam ravishda ishtirok etyapti.

2024-yilda Pokiston delegatsiyasi “Shahrisabz shahri Iqtisodiy hamkorlik tashkilotining turistik poytaxti” deb e’lon qilingani munosabati bilan tashkil etilgan xalqaro tadbirlarga qatnashdi.

O‘z navbatida, 2024-yil 22-24-aprel kunlari Islomobod shahrida bo‘lib o‘tgan xalqaro “Bahor festivali”da O‘zbekiston milliy pavilyoni tashkil etildi. Uch kun davom etgan tadbir mehmonlari mamlakatimizning boy tarixiy, madaniy merosi va sayyohlik salohiyati bilan yaqindan tanishdi.

Ishonch bilan aytish mumkinki, O‘zbekiston — Pokiston munosabatlari siyosiy, savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar sohalarni qamrab olgan holda jadal taraqqiy etib bormogda. Ayniqsa, mintaqaviy xavfsizlik va transport-logistika sohasidagi sheriklik masalalarida strategik manfaatlar mos kelishi muhim munosabatlarni istiqbolli va yanada manfaatli qiladi. Shu nuqtayi nazardan, Pokiston Bosh vazirining mamlakatimizga tashrifi siyosiy muloqotni yanada rivojlantirish, iqtisodiy hamkorlikni mustahkamlash hamda savdo, transport, energetika va xavfsizlik kabi muhim sohalarda sheriklik aloqalarini kengaytirishda yangi bosqich bo‘ladi. Bu nafaqat O‘zbekiston va Pokistonning strategik sheriklikni mustahkamlash istagini tasdiqlaydi, balki butun mintaqaga barqarorligi va rivojlanishiga hissa qo‘shgan holda uzoq muddatli hamda o‘zaro manfaatli sheriklikning yangi istiqbollarini ochib beradi.

“Dunyo” AA

Yangicha yondashuvlar



Kuvayt — Fors ko‘rfazidagi bebaho marvanilardan biri, dunyodagi eng qimmat valyutaga ega, yuqori daromadli mamlakat. Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra, uning yalpi ichki mahsuloti 2023-yilda 161,77 milliard AQSH dollarini tashkil etgan. Iqtisodiyotining asosini neft eksporti tashkil etadi.

O‘tgan yili O‘zbekiston va Kuvayt o‘rtasida ikki tomonlama iqtisodiy hamkorlikda alohida faollik kuzatildi. Ahamiyatlisi, ikki davlat ham o‘z rivojlanishini mintaqaviy hamkorlik bilan bog‘liq deb biladi. O‘zbekiston Markaziy Osiyo integratsiyasida muhim ahamiyat kasb etsa, Kuvayt Fors ko‘rfazi mamlakatlari o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirishda yetakchilik qiladi.

Ikki tomonlama sa’y-harakatlar natijasida Kuvayt yirik kompaniyalari va moliya institutlari vakillarining O‘zbekistonga 50

dan ortiq biznes missiyasi tashkil etildi. Bu esa Kuvayt ishbilarmon doiralari bilan mamlakatimizga qiziqishi ortib borayotganini ko‘rsatadi.

Masalan, o‘tgan yili 100 dan ortiq o‘zbekistonlik tadbirkor Al-Kuvayt shahriga bordi. Bu o‘zbekistonlik ishbilarmonlarning ham Kuvayt bozori bilan yaqindan tanishishga intilayotganini bildiradi. Faollashuvning bu rivoji bejiz emas, albatta. Kuvayt arab mintaqasida O‘zbekiston uchun har tomonlama manfaatli sherik. Jumladan, Kuvayt arab iqtisodiy taraqqiyot jamg‘armasi va bir qancha yetakchi kompaniyalar rahbarlari yurtimizda bo‘ldi. Ular O‘zbekistonning investitsiya salohiyati bilan yaqindan tanishib, hamkorlik loyihalarini muhokama qildi. Albatta, ushbu faol aloqalar ikki davlat o‘rtasidagi munosabatlarning yanada rivojlanishiga, o‘zaro manfaatli loyihalarning amalga oshishiga xizmat qiladi.

Jahon mamlakatlarida shaharlarning o‘sishi va rivojlanishi yangicha yondashuvlarni talab etmoqda. “Aqlli” texnologiyalar, innovatsion yechimlar shahar infratuzilmasini takomillashtirish, aholining turmush sifatini oshirish, ekologik muammolarni hal etishda muhim o‘ringa ega bo‘lmoqda. Bu borada O‘zbekiston va Kuvayt o‘rtasidagi hamkorlik alohida e’tiborga loyiq. Prezidentimizning joriy yil 17-18-fevral kunlari Kuvaytga rasmiy tashrifi mazkur smart yo‘nalishdagi aloqalar uchun yangi sahifalar ochdi. Boisi, ushbu tashrif davomida “aqlli” shaharsozlik va hududiy rivojlanish sohasidagi hamkorlik masalalari keng muhokama qilindi.

“Aqlli” shaharlar zamonaviy texnologiyalar va innovatsion yechimlar yordamida boshqariladigan, aholi uchun

Yurtimizda “aqlli” shaharsozlik bo‘yicha qilinayotgan bunyodkorlik ishlari ko‘lami joylarda foydalanishga topshirilayotgan yangidan yangi obyektlar, innovatsion ko‘rinish va sharoitga ega zamonaviy turar joylar misolida yaqqol ko‘zga tashlanmoqda. Qurilish sohasidagi bunday jarayon nafaqat shahar va qishloqlar qiyofasini o‘zgartirdi, balki odamlar hayotiga o‘zgacha mazmun-mohiyat bag‘ishladi.

qulay va xavfsiz sharoitlar yaratiladigan shaharlardir. Ular energiya tejamlorligi, ekologik tozalik, transport tizimi samaradorligi, xavfsizlik va boshqa ko‘plab afzalliklarga ega. O‘zbekistonda ham “aqlli” shaharlar qurishga katta e’tibor qaratilmoqda. Ikkala mamlakat ham bu



yo‘nalishda iqtisodiy shaffolikka intilib, raqamli texnologiyalarni iqtisodiyotiga jadal joriy etmoqda. Samarqand, Buxoro, Namangan kabi shaharlarda “aqlli” shahar loyihalari amalga oshirilmoqda.

Yurtimizda “aqlli” shaharsozlik bo‘yicha qilinayotgan bunyodkorlik ishlari ko‘lami

joylarda foydalanishga topshirilayotgan yangidan yangi obyektlar, innovatsion ko‘rinish va sharoitga ega zamonaviy turar joylar misolida yaqqol ko‘zga tashlanmoqda. Qurilish sohasidagi bunday jarayon nafaqat shahar va qishloqlar qiyofasini o‘zgartirdi, balki odamlar hayotiga o‘zgacha mazmun-mohiyat bag‘ishladi.

O‘zbekistondagi bunyodkorlik jarayoni “yashil iqtisodiyot”, urbanizatsiya, qurilishda

hujjatlarini ishlab chiqish bo‘yicha 2023-2027-yillarga mo‘ljallangan dastur, ko‘plab qarorlar shakllantirildi.

Shaharsozlik hujjatlarini ekspertizadan o‘tkazish bo‘yicha axborot tizimi to‘liq raqamlashtirildi. Bunda ariza beruvchilar uydan chiqmagan holda murojaat qilishi, qisqa muddatda tegishli ekspertiza xulosalarini olishi uchun imkoniyat yaratildi.

O‘z o‘rinda Kuvayt ham “aqlli” shaharsozlik sohasida katta tajribaga ega. Ushbu mamlakatda zamonaviy texnologiyalar va innovatsion yechimlar asosida bir nechta “aqlli” shaharlar bunyod etilgan. O‘zbekiston Kuvaytning “aqlli” shaharsozlik borasidagi tajribasini o‘rganib, o‘z shaharlarida zamonaviy texnologiyalarni joriy etishi xalqimiz uchun ham muhim manfaatga ega. Kuvayt uchun ham bu loyiha muhim bo‘lib, O‘zbekistonning qulay investitsiya muhitidan foydalanib, o‘z texnologiyalari va innovatsion yechimlarini yurtimiz bozorida taqdim etish imkoniyatiga ega.

Bunda ikki hamkor o‘rtasidagi “aqlli” shaharsozlik va hududiy rivojlanish yo‘nalishlari — “aqlli” shaharlar qurish bo‘yicha qo‘shma loyihalarni amalga oshirish, zamonaviy texnologiyalar va innovatsion yechimlarni ishlab chiqish, joriy etish, shahar infratuzilmasini modernizatsiya qilish, kadrlar va tajriba almashinuvi kabi muhim vazifalarni qamrab oladi. Shuning uchun Prezidentimizning Kuvaytga rasmiy tashrifi natijasida iqtisodiy sohada 4,9 milliard dollarlik salmoqli kelishuvlar to‘plami imzolanganini ham bejiz emas.

Ushbu vazifalar ijrosiga kirishilar ekan, O‘zbekiston shaharlari yanada zamonaviy, qulay va xavfsiz bo‘ladi. Aholining turmush sifati oshadi. Xalqimizning bunday smart shaharlarda yashash sharoiti o‘zgarishi va hayoti farovonlashuvi O‘zbekistonning mintaqaviy va xalqaro maydondagi mavqei mustahkamlanishiga ham xizmat qiladi.

Fazliddin MO‘MINOV, oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi bo‘lim boshlig‘i

O‘zbekiston hududida so‘nggi jez va ilk temir asrida, ya‘ni 4000-3000 yil oldin davlatchilik shakllana boshlagan. Bu davrda markazlashgan hokimiyat, iqtisodiy ixtisoslashuv va murakkab ijtimoiy tabaqalar bilan ajralib turadigan ilk shaharlashgan aholi manzillari paydo bo‘lgan. Jarqo‘ton, Sopollitepa, Ko‘ktepa, Sangirtepa va Afrosiyob kabi arxeologik yodgorliklar shundan dalolat beradi.



O‘ZBEKISTON HUDUDIDA DAVLATCHILIKNING SHAKLLANISHI

Ilk davlatchilik va davlatlarning yuzaga kelishi kishilik o‘tmishida tub burilishlardan biri sanalib, keng ko‘lamli, zich aholiga ega, siyosiy tomondan markazlashgan va ijtimoiy tabaqalashgan toifalarni kuchli yetakchilar tomondan boshqarilishi bilan amalga oshgan. Tarixchilarning aytishicha, birlamchi va ikkilamchi davlatlar bo‘lgan. Ular bir-biridan farqlanib, birlamchi davlatlarga o‘z ichki yuksalish jarayonlari orqali mustaqil kelib chiqqan davlatlar kiradi. Oldindan bor bo‘lgan davlatlar ta‘sirida yuzaga kelganlari esa ikkilamchi davlatlar deb ataladi.

Ilk davlatlar o‘z atrofidagi davlatchilikka ega bo‘lmagan jamiyatlar bilan tijorat, ushlar, ko‘chishlar kabi aloqalami olib borishi natijasida to‘g‘ridan to‘g‘ri yoki ayrim omillar ta‘sirida qo‘shnilarida ikkilamchi davlatlarning yuzaga kelishiga sababchi bo‘lgan.

O‘zbek arxeologlarining so‘nggi yillardagi izlanishlari Turon o‘lkasining ilk shaharlari va davlatlari haqidagi bilimlarimizni yanada boyitishga xizmat qildi. Ushbu ilmiy tadqiqot natijalariga ko‘ra, Turon o‘lkasini ham 3000 yil oldingi birlamchi davlatchilik kelib chiqqan o‘choqlar qatoriga qo‘shish mumkin.

Ilk sivilizatsiyalar ilk shaharchilik madaniyatini o‘rganish chiqqilashgani sayin sivilizatsiyalarning kelib chiqishi muammolari ham ko‘ndalang bo‘lmoqda. Izlanuvchilar oldida qanday qadimiy aholi maskani shahar deb belgilanishi, uning asosiy xususiyatlari va yuzaga kelishidagi omillar, nega ilk shaharlar tevarak aholisini tinmay o‘ziga tortgani, shaharning o‘shida dinning o‘rni kabi ko‘plab so‘roqlarga javob topish masalasi turadi.

Rahbarlashgan jamiyatga tavsif berilganda quyidagi omillarga e‘tibor qaratiladi: aholining zichligi, mehnat taqsimoti, yirik ko‘lamdagi hunarmandchilik, ijtimoiy tabaqalashuv, soliq yoki boj tizimi, aniq belgilangan davlat chegarasi, hukmdor saroyining mavjudligi, markaziy ombor (g‘azna), sug‘orish va mudofaa inshootlari tizimi, topinoqlar kabi ulkan jamoaviy qurilishlar, uzoq masofali tijorat, yozuv, aniq fanlar, masalan, oddiy arifmetika.

Arxeologik izlanishlarda Turon o‘lkasining turli tegralarida jez asriga tegishli ekin-tikinchilik jamoalarining qishloq va shahar qoldiqlari hamda chorvachilik bilan shug‘ullangan guruhlarning mozor-qo‘rg‘onlari ochildi. Janubiy Turonda jez asrida gullab-yashnagan Amudaryo sivilizatsiyasi bugungi kunda Janubiy Turkmaniston, Janubiy O‘zbekiston, Janubiy Tojikiston va Shimoliy Afg‘onistongacha yoyilib, uning eramizdan oldingi III ming yillikdagi, ya‘ni 5000 yil oldin ilk shaharchilik bosqichiga tegishli Oltintepa, Namozgoh, Qo‘ng‘ir (Gonur) kabi arxeologik qoldiqlari ko‘p yillar davomida qazib o‘rganilgan.

Janubiy O‘zbekistonning Surxondaryo viloyatida esa eramizdan oldingi II ming yillikning birinchi yarmida — 4000-3500 soliq yoki boj tizimi, aniq belgilangan davlat chegarasi, hukmdor saroyining mavjudligi, markaziy ombor (g‘azna), sug‘orish va mudofaa inshootlari tizimi, topinoqlar kabi ulkan jamoaviy qurilishlar, uzoq masofali tijorat, yozuv, aniq fanlar, masalan, oddiy arifmetika.



yil oldin ilk shaharchilik madaniyatiga asos solingan. Sopollitepa majmuasi Turon o‘lkasi ilk shaharchiligining yorqin ko‘rinishi bo‘lib, kelib chiqishi Janubiy Turkmanistondagi Kopetdog‘ etaklaridagi Namozgoh majmualariga bog‘liq bo‘lgani taxmin qilinadi.


Sopollitepa arxeologik yodgorligi Amudaryo yaqinida, Kuhtang tog‘laridagi

Pashxurt vohasidan Sherobod cho‘liga olib chiquvchi daralardan birida o‘rin olgan. Bu yerdagi Qaynarbuloq va Ulanbuloq soy suvlariga tayangan holda eramizdan oldingi II ming yillikning 2-choragida — 4000-3700 yil oldin qadimgi ekin-tikinchilarning shaharchasi qad ko‘targan. Bu yodgorlik xarobalari mahalliy aholi orasida Sopollitepa deb nom olgan. Sopollitepa maydonining katta qismiga sho‘rolar davrida paxta ekilib, uning markaziy qal‘a qismigina saqlanib qolgan. Qal‘a atrofidagi yodgorlik maydonida sochilib yotgan sopol parchalari, tosh yorg‘uchoqlar, urchuqtosh va hayvon suyaklari, turli mehnat qurollariga qaraganda, uning umumiy maydoni o‘z davrida 4-5 gektardan kam bo‘lmagan. Bu yerda o‘tkazilgan arxeologik qazishmalar asosida yodgorlik favqulodda noyob, uy-joy majmualarining me‘moriy qurilishi hamda mudofaa inshootlarining mukammalligi bilan ajdodlarimiz muhandislik ilmining yuksak namunasi bo‘lgani aniqlangan.

Sopollitepa yodgorligiga yaqin joyda — Bo‘stonsoyning chap sohilida bundan 3500 yil oldin Jarqo‘ton shaharlashgan aholi punkti qad ko‘targan. Afsuski, uning katta qismi sho‘rolar davrida paxta va sabzavot ekin maydonlariga aylantirilgan. O‘zlashtirish qiyin bo‘lgan qismi Bo‘stonsoy sohili bo‘ylaridagi jarliklar tufayli saqlanib qolgan. Yodgorlikning bizgacha yetib kelgan shakliga ko‘ra, u ikki qismdan — mudofaa devorlari bilan o‘ralgan hukmdor saroyi, unga tutashib ketgan aholi zich yashagan maydondan iborat bo‘lgan. Uning janubida bir necha tabiiy tepaliklarga joylashgan shahar-qabriston bo‘lgan. Yodgorlik yuzasida sochilib yotgan sopol parchalari, tosh yorg‘uchoqlar, boshqa mehnat qurollari bu yerda uy-joy va ishlab chiqarish ustaxonalarining o‘z davrida gullab-yashnaganidan dalolat beradi. Jarqo‘tonda olib borilgan arxeologik qazishmalar guvohlik berishicha, bu yerdagi inshoot majmualari xom

g‘ishtlardan ko‘tarilgan poydevorlar ustiga qurilgan. Jarqo‘ton jez asrining 100 gektarga teng eng yirik ilk shahar qoldig‘i sanaladi.

Ilk temir asrining boshlang‘ich bosqichida, eramizdan oldingi I ming yillikning birinchi yarmida, ya‘ni 3000-2500 yil oldin Shimoliy Baqtriyaning uch yirik ekin-tikinchilik hududi — Sherobod, Boysun va Surxon vohalarining har birida yirik markaziy shaharlar — Jondavlatpe, Qiziltepa, Hayitobodtepaning yuzaga kelishi kuzatiladi. Bir-biriga yaqin joylashgan bu uch ilk shahar atrofida ko‘plab qishloq, mozor-



qo‘rg‘on va harbiy qarorgohlar o‘rnashgan. Shuningdek, ular qadimiy yo‘llar va sug‘orish tarmoqlari orqali bir-biriga bog‘langan yagona voha davlati tizimini shakllantirgani aniqlangan.

Sug‘d tarixiy-madaniy o‘lkasi Zarafshon va Qashqadaryo vodiylarini qamrab, shartli o‘laroq uch qismga bo‘linadi — Markaziy Sug‘d (Yuqori va O‘rta Zarafshon), G‘arbiy Sug‘d (Quyi Zarafshon) va Janubiy Sug‘d (Qashqadaryo vohasi).

Qashqadaryo viloyati Kitob tumanidagi Uzunqir, Sangirtepa va Podayotoqtepa yodgorliklari Janubiy Sug‘dda eramizdan oldingi I ming yillikning birinchi yarmida — 3000-2500 yil oldin — shaharlashgan tusha ega yirik

shaharsozlik tizimiga kiruvchi va shaharning bosh zardushtiylik topinog‘i vazifasini bajargan me‘moriy qurilmadir. Qazishmalarda bu yodgorlikning o‘rtada otashgoh turadigan yirik qismdan tashkil topgani va Turonda eng qadimgi zardushtiylik topinog‘i bo‘lgani aniqlangan.

Yerqo‘rg‘on Janubiy Sug‘dning qadimgi bosh shaharlaridan biri Naxshabning xarobasi, hozirgi Qarshi shahri yaqinida joylashgan. Ichki qismining maydoni 40 gektar bo‘lib, bu yerda o‘rda va hukmdor saroyi, shahar topinog‘i, zardushtiylik ko‘mish marosimi o‘tkaziladigan daxma, yuqori tabaqa vakillariga tegishli qabriston, kulollar va metallurglar mahallasi hamda eramizdan oldingi VIII-VII asrlar mudofaa tizimi bo‘laklari mavjud.

Markaziy Sug‘dda ilk shahar va davlatchilikni ko‘rsatib beradigan ikki yirik yodgorlik — Ko‘ktepa va Afrosiyob xarobalari bor. Samarqand viloyati Payariq tumani Chelak shahridagi umumiy maydoni 100 gektarga teng Ko‘ktepa yodgorligi ikki qator mudofaa devori bilan o‘ralgan. Eramizdan oldingi II ming yillikning so‘ngidagi Burgalik majmuasiga tegishli kichik qishloqda turmush to‘xtagandan so‘ng bu yerda eramizdan oldingi VII asrga kelib, guvalasimon xom g‘ishtlardan ulkan me‘moriy qurilmalar quriladi. Tez orada shaharlashuv xususiyatiga ega ko‘ktepaning qoq o‘rtasida yirik olov topinog‘i ko‘tariladi. Bu yerda arxeologlar tomonidan “shahar hokimi qarorgohi” deb atalgan ikki qavatli va 200 kvadrat metr maydonga ega yana bir ulkan me‘moriy qurilma topilgan. Ko‘ktepani aylanasi ga o‘rab turgan mudofaa devorlari ham guvalasimon xom g‘ishtlardan qurilgan bo‘lib, eni 12 metrga teng.

Afrosiyob Markaziy Sug‘dning eng qadimiy bosh shaharlaridan biri bo‘lib, bugungi kunda 200 gektardan ortiq maydonga ega xarobasi bor. Samarqand shahridagi bu yodgorlikda hayot eramizdan oldingi VII asrda boshlanib, xuddi



Ko‘ktepadagidek guvalasimon xom g‘ishtdan mudofaa devori ko‘tarilgan.

Amudaryoning quyi oqimida o‘rnashgan Xorazm tarixiy-madaniy o‘lkasi ilk temir asriga kelib shaharchilik negizida davlatchilik vujudga kelgan o‘choqlardan yana biri sanaladi. Xorazm sivilizatsiyasining ilk izlari Ko‘zaliqir, Hazorasp, Xumbuztepa kabi ilk shahar xarobalari va ularning tevaragida o‘z davrida gullab-yashnagan vohalar bo‘lgan. Ko‘zaliqir Turkmanistonning Toshhovuz shahridan 60 chaqirim g‘arbda joylashgan, maydoni 25 gektarga teng, ikki qator mudofaa devorlari bilan o‘ralgan va eramizdan oldingi VII-V asrlarda gullab-yashnagan qadimgi Xorazmning ilk shaharlaridan birining qoldig‘idir. Bu yerdan hukmdor saroyi, ko‘plab sopol idish siniqlari, jezdan yasalgan o‘q uchlari, ot yugani bo‘laklari, ayol taqinchoqlari topilgan. Ko‘zaliqirliklar ekin-tikin bilan shug‘ullangan, biroq ko‘proq vaqtini yaylov suruvchiligi bilan ham o‘tkazgan.

Xumbuztepa yodgorligi Amudaryo bo‘yida joylashgan va 4 gektari saqlanib qolgan Janubiy Xorazm ilk shaharlaridan biridir. Olib borilgan qazishmalar natijasida eramizdan oldingi VII-VI asrlarga tegishli bo‘lgan topilmalar ochildi. Ushbu qazishmalar ilk shaharchilik va davlatchilik Xorazmning janubida yuz berganini ko‘rsatmoqda. Izlanishlarda xumbuztepaliklarning ilk boshdanqoq charxda ishlangan yuqori sifatli kulochilik mahsulotlari ishlab chiqargani va Turonda eng qadimgilardan biri bo‘lgan olov topinog‘iga ega bo‘lgani aniqlangan.

Farg‘ona vodiysida ilk temir asriga tegishli eng qadimgi shahar ko‘rinishiga ega yodgorlik Eylatonidir. Bu shahar Andijon viloyati Izboskan tumanida joylashgan bo‘lib, o‘z davrida uning mudofaa devori ichkarisidagi maydoni 200 gektarga teng bo‘lgan. Shaharning 20 gektarli hukmdor o‘rdasi ham kuchli mudofaalangani qazishmalardan ma‘lum bo‘lgan.

Eramizdan oldingi VII-III asrlarda yashagan eylatonliklar Farg‘ona vodiysi bo‘ylab 40 dan ortiq qishloq va shahar qurib, kulochilik, temirchilik va to‘quvchilik bilan shug‘ullangan.

Shunday qilib, ilk temir asrida eramizdan oldingi I ming yillikning birinchi yarmida — 3000 yillar oldin Turonning bir necha tarixiy-madaniy o‘lkasida, jumladan, O‘zbekiston hududida mustaqil o‘laroq ilk shaharchilik va davlatchilik shakllangani kuzatilgan. Bu Shimoliy Baqtriya, Sug‘d, Xorazm va Farg‘ona hisoblanadi.

Farhod MAQSUDOV,
O‘zFA Milliy arxeologiya markazi
direktori,
tarix fanlari doktori

Shukuh

Navro‘z qadim tarixga ega bayram. Xalqimiz bu kunni nishonlashga alohida tayyorgarlik ko‘rgan. Davlatimiz rahbarining joriy yil 21-fevraldagi “2025-yilgi Navro‘z umumxalq bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida”gi qarori ham yurtdoshlarimiz orziqib kutayotgan uyg‘onish faslining asosiy shodiyonasi ko‘tarinki ruhda nishonlanishidan darak beradi.

Asrlar davomida e‘zozlab kelinayotgan, BMT tarafidan xalqaro bayram sifatida e‘tirof etilgan Navro‘zni mamlakatimizdagi ulkan o‘zgarish va yangilanishlar jarayoniga uyg‘un va hamohang tarzda yuksak saviyada o‘tkazishga har qachongidan ham o‘zgacha shukuhda tayyorgarlik boshlanib ketdi.

Qarorda ushbu ayyomning ruhi va falsafasida mujassam bo‘lgan borliqni asrab-avaylab, doimo u bilan uyg‘un bo‘lib yashash, mehr-oqibat, xayr-u saxovat, bunyodkorlik, bag‘rikenglik, do‘stlik va hamjihatlik singari yuksak g‘oyalari bugun yanada

teran mazmun va ahamiyat kasb etib borayotgani ta‘kidlangan.

Navro‘z — bag‘rikenglik bayrami. Uni mamlakatimizdagi 130 dan ortiq millat va elat vakillari birdek katta xursandchilik bilan nishonlaydi. Bu bahoriy bayram o‘zbekning o‘zligini, bag‘rikengligi mehmondo‘stligi, qo‘yingki, barcha insoniy fazilatlarini mujassamlashtirgan.

O‘tgan yili Prezidentimiz Navro‘z umumxalq bayramiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagii nutqida ta‘kidlaganidek, “Navro‘zi olam falsafasi bizning orzu-intilishlarimiz, amaliy ishlarimiz bilan uzviy bog‘lanib ketganini bugun har qadamda yaqqol ko‘rish mumkin. “Yangi hayot uchun, Yangi O‘zbekiston uchun!” degan ezu g‘oya atrofida birlashgan xalqimizning olijanob mehnati bilan mamlakatimizda yangi-yangi zamonaviy korxonalar, shinaam uy-joylar, ijtimoiy va madaniy obyektlar, yo‘l va ko‘priklar, bog‘ va xiyobonlar barpo etilmoqda. Yurtimiz qiyofasi kundan-kunga obod va go‘zal bo‘lib bormoqda”.



Yurtimizda aholi manfaatlari va ijtimoiy himoyasini ta‘minlash, ehtiyojmand qadamlarni ko‘llab-quvvatlash, jamiyatning hech bir a‘zosi ni mehr va e‘tibordan chetda qoldirmaslik, shahar va qishloqlarimizni obod qilish, yer va suv resurslari, barcha tabiat me‘natlaridan oqilona foydalanish ustuvor vazifamizga aylamoqda. Atrof-muhimi asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida nishonlanadigan bu yilgi Navro‘z shodiyonlari shu bois, yangicha ruh va mazmun kasb etadi.

— Ulug‘ ajdodlarimiz Navro‘z bayramini yangi yilning boshi deya bilib, faslning qanday kirib

kelishi, qay tarzda boshlanishiga qarab yil davomida dehqonchilik, chorvachilik, tijorat va umuman, hayotning barcha jabhasida sodir bo‘ladigan voqea-hodisalar haqidagi muayyan xulosalarini yozib qoldirgan, — deydi O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi, filologiya fanlari doktori Muslihiddin Muhiddinov. — Shu asosda “Solnoma”, “Navro‘znoma”, “Me‘rojnom” kabi asarlar bitilgan. Aslida, bu bayram, eng avvalo, yaratuvchanlik va xotirjamlik bayramidir. Uning eng muhim mohiyati ma‘naviy va madaniy hayotdagi tinchlik-totuvlik, mehr-oqibat hamda

insonparvarlik g‘oyasi, do‘stlik va o‘zaro yordamni mustahkamlashdagi o‘rnidir. Bugun donishmandona yuritilayotgan ijtimoiy siyosat bayramona kayfiyat sururini jadalashitir ekan, beshak turkiy bashariyatning har tuni qadriyu har tongi umidli, ohori yangidir!

Bugun yurtimizda katta taraddud. Qarorga ko‘ra, joylarda Navro‘z umumxalq bayramiga bag‘ishlangan barcha tadbirlarni milliy qadriyat va an‘analimiz hamda bugungi islohotlarimizning ma‘no-mohiyatiga mos holda yuksak darajada tashkil etish, yurtdoshlarimizning faol ishtirokini ta‘minlash maqsadida alohida e‘tibor qaratiladigan masalalar belgilab olindi.

Jumladan, bayram tadbirlarini borliqning uyg‘onishi, inson va tabiat o‘rtasidagi uyg‘unlik, ona zaminga mehr va e‘tiborni ifoda etadigan, yurtdoshlarimizni bugungi tinch va osuda hayotimizni qadrlab, shukronalik tuyg‘usi bilan yashashga undaydigan ta‘sirchan mazmun va shakl bilan o‘tkazishga ahamiyat qaratiladi. Shuningdek, mamlakatimizdagi tub demokratik islohotlar, xalqimizning kundalik hayoti, ongi va dunyoqarashida yuz berayotgan ijobiy o‘zgarishlar Navro‘zning

insonparvarlik va inklyuzivlik mohiyatiga, azaliy qadriyat va an‘analarga hamohang ekanii tantanalar mohiyatini belgilab beradi.

Qayd etilganidek, bu yilgi Navro‘z bayrami muqaddas Ramazon oyida nishonlanishini inobatga olib, kessa avlod vakillari, xususan, Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va mehnat fronti faxriylarini har tomonlama e‘zozlash, “Mehribonlik”, “Saxovat” va “Muruvvat” uylarida yashayotgan shaxslar, ijtimoiy himoya daftalariga kiritilgan, ko‘makka muhtoj insonlar holidan xabar olish, ular uchun bayram dasturxonii yozish hamda turli xayriya tadbirlarini o‘tkazish alohida e‘tibor markazida bo‘ladi.

Eng asosiysi, “Yashil makon” umummilliy loyihasida belgilangan tadbirlar amalga oshirilib, bayram arafasida barcha hududda, ko‘cha, mahalla, tuman va shaharlarda obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish aksiyalari, umumxalq hasharlari o‘tkaziladi.

Demak, bahorning asosiy bayrami mamlakatimizda “Qadriyatlarining boqiy bo‘lsin, Navro‘zi!” degan bosh g‘oya asosida keng nishonlanadi. Uning har doimgidek yuqori saviyada o‘tishi barchamizdan mas‘uliyat va daxldorlik talab etadi.

Nodir MAHMUDOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Davlatimiz rahbarining yoshlar bilan ochiq muloqotida kreativ industriya parklari hududlarda ham tashkil qilinishi borasidagi so‘zlarini eshitib tog‘amga telefon qildim. Yangilikni eshitib, boshi ko‘kka yetdi. Agar bizning viloyatda ochildi, xabarini ayt, birinchi o‘zimiz borib ko‘raman, keyin esa jiyanlaringni yuboraman, deya tayinladi. Aytgancha, bu yangilikni tog‘am bilan bo‘lishishimning o‘ziga xos tarixi bor. Gap shundaki, o‘tgan yili endi o‘qishga kirgan o‘g‘lini qoralab kelganida ikkalamiz uning universitetiga borgandik. Tog‘am undan qiynalmayapsanmi, o‘qishlaring yaxshimi, degan savollariga javob olgach va dars jarayonlarini kuzatib, ko‘ngli bir oz taskin topdi.



KREATIV IQTISODIYOT

UNING MANBAI — BILIM VA IJODIY QOBILIYAT

So‘ng tog‘am vaqting bo‘lsa, meni bir saroyga olib bor, deb qoldi. Dastavval qayerligini bilmay, qanaqa saroyligini so‘radim. Keyin jiyaning har safar telefon qilganida saroydaman, dars qilyapman, deydi. O‘sha yerga borsak, yaxshi bo‘lardi. Yana tog‘am gapini izohlab: bolalar saroyimi, yoshlar saroyimi, der edi-da, sen u joyni bilasanmi, deb so‘radi. Ha, Yoshlar ijod saroyimi, bilaman, ketdik, dedim. Ochiq‘i, o‘zimizning ham u yerga bormaganimga ancha bo‘lgan edi.

Borib, bu yerda yoshlarning kitob mutolaa qilishi, dars tayyorlashi, qolaversa, ijodiy qobiliyatini namoyon qilishi uchun kreativ industriya parki tashkil etilganini bildim. Yoshlar ijod saroyi men bilgan, ilgari huvillab yotgan joy emas, yoshlar bilan gavjum sevimli maskana aylanibdi.

Saroydagi kreativ industriya parki negizida “Ijod”, “Kitoblar olami” singari do‘konlar faoliyati yo‘lga qo‘yilbdi. Shuningdek, o‘g‘il-qizlarning mutolaa qilishi, kompyuter va boshqa jihozlardan foydalanib, dars tayyorlashi uchun qulay, bir-biridan ajoyib dizaynga ega o‘rindiqdagi joylashtirilbdi. O‘zgarishlarni ko‘rib, ochig‘i, hayratlandim. Tog‘am kitoblardan birini varaqlab, o‘rindiqqa o‘tirdi. So‘ng bolasini tergapandek, atrofdagi yigit-qizlarni so‘roqqa tuta boshladi.

— Sen nima ish qilasan, bu yerda nima qilyapsan?

— O‘zim ishlayman, hozir bu yerda SMM menejerlikni o‘rganyapman.

— Qayerda ishlaysan?

— Supermarketa sotuvchilik qilaman. Tushgacha shu yerda dars tayyorlayman. So‘ng “Ijod” kafesida ovqatlanib, ishga boraman. Bu yerda kerakli kitoblar bor. Internet bepul. Bir yo‘la bilimimni ham mustahkamlayapman.

— Anavi menejerligingni o‘rganib ish topa olasanmi o‘zi?

— Ha, o‘zim savdo qiladigan supermarket oziq-ovqat savdosi bilan shug‘ullanadigan do‘konlar tarmog‘iga ega, nasib qilsa, o‘sha yerda SMM menejer bo‘lib ishlayman.

— Ha, yaxshi, omadingni bersin, bolam. Sen-chi? Sen niman o‘qiyapsan, qizim?

— Ingliz tilini o‘rganyapman. O‘zim universitet talabasiman.

— Universitetlaringda biblioteka yo‘qmi?

— Bor, ammo bu yer qulay. Xorijiy til bo‘yicha turli mashg‘ulotlar ham bo‘lib turadi. Kitoblardan muammo yo‘q.

— Ha, kitob ko‘p ekan.

Tog‘am o‘rman turarkan, bo‘sh joyning o‘zi yo‘q, bekor o‘tirgan biror bolani uchratmadim, deya shivirladi. So‘ng kreativ industrial parkda faoliyat yuritadigan “Animatsiya maktabi”, “Shaxmat maktabi”, “Ibrat akademiyasi”, “Kulolik akademiyasi”, O‘zbekiston volontyorlar assotsiatsiyasi faoliyati bilan tanishdik.

Binodan chiqar ekanmiz, tog‘am menga qarab, saroyimsan, saroy ekan-a, deb qo‘ydi. Ana endi jiyaningdan ko‘nglim to‘q, deya chuqur nafas oldi. Uzoq joy, yomon bolalar, odatlarga o‘ralashib qolmasin-da deb qo‘rqqandim. Universitetini ko‘rdim, bu joy bilan tanishdim, o‘g‘limiz ishonchli qo‘llarda ekaniga amin bo‘ldim. Qaniydi qishlog‘imizda



ham shunaqasi bo‘lsa, deya ortiga entikib qaragancha eshikdan chiqdi.

Men ham o‘shanda kreativ industriya parkidagi yoshlarning shijoati, oldiga ko‘ygan aniq maqsad va rejalariga qarab itilishini ko‘rib ta‘sirlandim. Ularning ilm olish yo‘lida bir-biriga do‘st, hamroh, ustoz shogird bo‘lib harakat qilishiga havasim keldi. Bir paytlar ustozimning uyushgan va uyushmagan yoshlarga bergan ta‘rifi yodimga tushdi. Uyushmagan yoshlarning fikr va maqsadi bo‘lmaydi, dunyoqarashi haminqadar. Uyushgan yoshlar esa o‘rmonga o‘xshaydi. Daraxtlar birlashib, keng o‘rmonni hosil qiladi. Ammo

alohida olganda ham terak, qayin, chinor kabi o‘z nomi, o‘ziga xos xususiyatlari bor, degan edi. Ustozim ta‘rifini keltirgan uyushgan yoshlarni shu yerda uchratdim. Ular mamlakatimiz kelajagini yaratadigan, yangi O‘zbekistonni yangi marralar sari olib chiqadigan kelajak tayanchlari ekaniga amin bo‘ldim.

Voqeani o‘qib, kreativ industriya parking kutubxona, o‘quv markazi, oliy o‘quv yurtlaridan asosiy farqi nimada ekanini payqamagandirsiz. Ushbu ziyo maskanining boshqalaridan ajralib turadigan jihati bu yerda

“BEDARAK” DAN KAYRLI DARAKLAR



Dastur — amalda

Bag‘dod tumanidagi “Bedarak” MFYga qarashli Do‘stlik qishlog‘ida yangi yil bunyodkorlik va obodonlashtirish ishlari bilan boshlandi. Chekka qishloq katta qurilish maydoniga aylanib ketdi. Yo‘l solayotgan, suv tarmoqlari tortib, daraxt ekayotgan tashabbuskorlar sa‘y-harakati bir dam bo‘lsa-da, to‘xtangani yo‘q. Bunyodkorliklar odamlar og‘irini yengil qilyapti, ruhiyati, qadr-qimmatini ko‘tarmoqda, bugun va ertangi kunga ishonchini mustahkamlamoqda.



O‘tgan asrning saksoninchi yillarida tashkil etilgan chekka qishloq yillar davomida e‘tibordan chetda qoldi. Yo‘l, suv, elektr ta‘minoti, tomorqadan samarali foydalanish bilan bog‘liq muammolar aholining haqli e‘tirozlariga sabab bo‘lib kelgan. Mavjud masalalar yechimida odamlarning amaliy yordam so‘rab bormagan idorasi, bosh suqmagana eshigi qolmadi. Biroq hech kim hech ish qilmadi, qila olmadi o‘shanda. Kundalik hayot tarzi uchun oddiy sharoit yo‘qligidan aziyat chekkan aksariyat oilalar bu yerdan ko‘chib ketishga majbur bo‘ldi...

Prezidentimizning 2024-yil 23-sentabrdagi “Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturini amalga oshirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori chekka qishloqqa yangi hayot nafasini olib kirdi.

Mahalladagi yetti yuzdan ortiq xonadonning asosiy daromadli tomorqachilik, chorvachilik, bog‘dorchilikka ixtisoslashgan. Ammo bu ishlarni tartibli bajarish, ilg‘or tajribalarni omallashtirish uchun suv yetishmaydi. Qishloqqa kelayotgan asosiy suv o‘zani So‘x daryosiga bog‘liq. Ayni pishiqchilik mavsumida yuzaga kelgan suv tanqisligi ekin maydonlarini sug‘orish va hosil olish imkonini bermasdi. Aholi farovonligi yo‘lidagi islohotlar muammolar yechimida qo‘l kelmoqda.

— Shu yerga ko‘chib kelib, qo‘nim topganimga 40 yildan oshirdi. Bu qadar

obodonlashtirish, bunyodkorlik ishlari qilinmagan, — deydi mahalla fuqarolari yig‘ini raisi Adham Sotvoldiyev. — Mahallamizda ekin yerini o‘zlashtirish, tomorqadan samarali foydalanish hadisini olgan asl mirishkorlar ko‘p. Ammo suv ta‘minotidagi taqchillik tufayli aksariyat ekin maydonlari qarovsiz qolayotgandi. Endi hammasi yaxshi tomonga o‘zgariyapti. Toza ichimlik suv, tomorqa ekin maydonlari uchun maxsus suv quduqlari qazish, suv yo‘llarini betonlashtirish borasidagi ishlar oilalarga quvunch va shodlik olib keldi. Odamlar hozirdan bahor yumushlari, ekin ekish ishlarini boshlash taraddudini ko‘ryapti, mahallamiz har jihatdan obod, ko‘rkam va fayzli maskanga aylanayapti, yashil bog‘lar barpo etilyapti.

“Bedarak” mahalla fuqarolari yig‘inida boshlangan islohotlar mahalla ahlini birlashtirdi, hamjihatligini oshirdi. Odamlar qilinayotgan ishlarga shunchaki tomoshabin bo‘lib qarab turgani yo‘q. Ko‘piga ko‘makchi bo‘lib, obodonlashtirish ishlariga baholi qudrat hissa qo‘shmoqda, e‘tibor va g‘amxo‘rlikka shukrona qilyapti.

— Mahallamizdagi ishlarga ko‘pning havasi kelyapti, — deydi Mavluda Abduurahimova. — Har bir kunning o‘zgarish, yangiliklar bilan qarshi olishga odatlanib qoldik. Xonadonlarimizga suv kirib keldi, qishda loy, yozda chang, o‘ngir-cho‘ngir ko‘chalarimiz tekislanib, asfalt yotqizilyapti. Suv yo‘li qazilyapti, ko‘chalarimiz

tunda ham charog‘on. To‘g‘risi, hududimiz bu qadar o‘zgarib ketadi deb o‘ylamagandik.

Bu yerda birgina sug‘orish tizimini yo‘lga qo‘yish uchun 2 milliard 200 million so‘m yo‘naltirilgan tomorqachilik, chorvachilik, parrandachilik va bog‘dorchilik yo‘nalishlaridagi istiqbolli loyihalarni amalga oshirish, aholi farovonligi va bandleligini ta‘minlash borasidagi tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlashga xizmat qilmoqda.

Elektr ta‘minotini yaxshilash maqsadida 46 ta tayanch ustun almashtirildi, zamonaviy kabel tarmoqlari tortilib, quyosh panelli 30 ta tungi yoritqich o‘rnatildi. Tomorqalarda suv ta‘minotini yaxshilash uchun 2 ta tik quduq qazish, 5 kilometr ichki ariqni betonlashtirish ishlari bajarilyapti.

— Mahallamiz tomorqachilik, chorvachilik, bog‘dorchilikka ixtisoslashgan, — deydi hokim yordamchisi Elyor Brohimov. — Aholi bilan yuzma-yuz muloqotlarda “Har bir oila — tadbirkor”, “Biznesga birinchi qadam” dasturi doirasida berilayotgan sarmoyadan maqsadli foydalanish, tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlashga alohida e‘tibor beryapimiz. Voyaga yetmaganlar, nogiron, nafaqa oluvchi va ijtimoiy yeystrda turuvchi oilalarga yordam ko‘rsatish, migratsiyadan qaytgan hamda ishsiz 27 kishi bandleligini ta‘minlash borasida manzilli chora-tadbirlar ko‘rilyapti. Uch nafar ishsiz mahallamizga yaqin joylashgan “White chickens” parrandachilik korxonasi va “Marvel invest” chinni buyumlar ishlab chiqarish korxonasiga doimiy ishga joylashtirildi. To‘rt fuqaroga “Har bir oila — tadbirkor” dasturi doirasida imtiyozli kredit ajratilib, bandlegi ta‘minlandi. Ishsiz ikki ayolga subsidiya asosida tikuv mashinasi olib berildi. Yana to‘rt nafariga “Muruvvat” mahalla fuqarolari yig‘inida qurib bitkazilgan 10 sotixli yurttirish ushuxona berildi. Dehqon xo‘jaligini tayyor ish uchun ikki fuqaroga yer maydoni ajratildi. Yosh bolali 22 ayol bandleligini ta‘minlash maqsadida kasanachilik va suda mablag‘i hisobidan supurgi tayyorlash dastgohi olib berildi. Bugunga qadar bu yo‘nalishda 81 fuqaroning bandlegi ta‘minlab, bo‘shimcha daromad olishiga ko‘maklashildi. Shu tariqa mahallamiz ishsizlik va kambag‘allikdan xoli hududga aylandi.

Keng ko‘lamli islohotlar “Bedarak” mahalla fuqarolari yig‘inidan boshqa joylarda ham amalga oshirilyapti, albatta. Farg‘ona viloyatidagi 99 ta og‘ir hududda kommunikatsiya tizimini yaxshilash uchun 297 milliard so‘m ajratilib, manzilli chora-tadbirlar ishlab chiqildi. Jumladan, 83 ta mahallada sug‘orish tizimini yotqizish uchun quduq qazishga 117,1 milliard so‘m, 99 ta mahallada elektr ta‘minotini yaxshilashga 126 milliard so‘m va 72 ta mahalladagi yo‘l infratuzilmasini yaxshilash uchun 54 milliard so‘m yo‘naltirilyapti.


Rasuljon KAMOLOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri



Dolzarb mavzu

Keyingi yillarda butun dunyoda oziq-ovqat xavfsizligiga erishish, aholini xavfsiz va sifatli mahsulotlar bilan barqaror ta‘minlashga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Buning boisi aniq: iste‘mol ko‘payib boryapti, yer va suv resurslari esa cheklangan. Yangi O‘zbekistonda aholini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan to‘liq ta‘minlashga erishish uchun mamlakatda qishloq xo‘jaligi imkoniyatini innovatsion rivojlantirish maqsad qilingan. Ushbu strategik maqsad va vazifalarga erishish esa bevosita tuproqning holatiga bog‘liq. Ya‘ni hosildor tuproqni saqlab qolish uchun siyosat va rag‘bat zarur.

UY-JOY VA SANOAT KORXONALARINI QANDAY TUPROQLI YERGA QURISH MUMKIN EMAS?



Shu jihatdan olganda, bundan bir yil avval qabul qilingan “Tuproqni muhofaza qilish va uning unumdorligini oshirish to‘g‘risida”gi qonunda tabiiy ekologik tizimlarni muhofaza qilish, tuproqdan samarali va ehtiyotkorlik bilan foydalanish, sifatini saqlash, salbiy ta‘silardan himoya qilish kabi dolzarb masalalar belgilab qo‘yilgan. Eng asosiy, qonunga binoan tuproqqa rasmiy huquqiy maqom berildi. Chunki ushbu qonunning butun mazmun-mohiyati O‘zbekiston hududida barqaror tuproq sifatiga erishish va saqlashga qaratilgan.

Vazirlar Mahkamasining joriy yil 22-yanvardagi “Tuproq monitoringini amalga oshirish hamda tuproqning unumdor qatlamini aniqlash tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida ham mazkur qonunning mantiqiy davomi sifatida qator zarur va ustuvor vazifalar qayd etildi. Masalan, unga ko‘ra, Tuproq monitoringini amalga oshirish tartibi to‘g‘risida hamda Tuproqning unumdor qatlamini aniqlash tartibi to‘g‘risidagi nizom tasdiqlandi.

Tuproq monitoringini amalga oshirish to‘g‘risida mulohaza yuritask, avvalo, tuproq monitoringining o‘zi nima va nima uchun kerak, degan savollarga oydinlik kiritib olishimiz zarur.

Aslida, monitoring kutilmagan oqibatlab aniqlash uchun erta ogohlantirish tizimi, degani. Tuproq monitoringi esa tuproqni tiklash borasidagi sa‘y-harakatlar samaradorligini baholashga yordam beradi. Bu chora nomaqbul tendensiyalarni erta aniqlash va zarar yetkazilishining oldini olishda qo‘l keladi. Umuman olganda, yerdan foydalanish uchun asosli qarorlar qabul qilishda monitoringning ahamiyati katta.

Olimlarimiz tomonidan tuproq monitoringi bo‘yicha tadqiqot ishlari 2000-yildan buyon



yuz

talab yuqori bo‘lgan zamonaviy kasb egalari: raqamli marketolog, grafik dizayner, piar menejer va targeting bo‘yicha mutaxassis, videograf (yoki mobilograf), SMM menejer, 3D dizayner kabi mutaxassislar tayyorlanishidir.

Masalan, poytaxtimizdagi kreativ parking aksariyat loyihalari ayni shu yo‘nalishga qaratilgan. Xususan, “Ustoz AI” mobil ilovasi orqali masofadan turib ham yuqoridagi kasblar bo‘yicha ta‘lim olish mumkin. Bu kasblarni egallagach, ish topish masalasi qanday bo‘ladi, degan savol ko‘pchilik uchun qiziq. Bugun qaysi sohada biznes yuritimg, o‘z faoliyatimgizni, albatta, internet va ijtimoiy tarmoqlarda reklama, targ‘ib qilishingizga to‘g‘ri keladi. Bu borada esa sizga marketolog, piar menejer va targeting bo‘yicha mutaxassis, SMM menejer yordam beradi. Shu bois, turli do‘kon, restoran egalariidan tortib, qurilish kompaniyalari, ishlab chiqarish sexlari, korxonalarda ham ushbu kasb egalarga talab mavjud. Raqobat kuchayib borayotgan bir davrda esa mahsulot dizayni muhim ahamiyat kasb etadi. 3D dizayner, grafik dizaynerlari bu masalada tadbirkorlarning og‘irini yengil qiladi.

Fikrimga ishonch hosil qilish uchun ish o‘rinlari haqida e‘lon joylashtiradigan sayt va ijtimoiy tarmoq kanallariga kirib ko‘ring. U yerdagi har uchtdan bitta bo‘sh ish o‘rni yuqoridagi kasb egalari uchun mo‘ljallangan.

Kreativ industriya parklarining hududlarda ham tashkil etilishi yoshlar bandleligini ta‘minlashda qo‘l keladi. Ularning dunyoqarashi kengayishi, ijodkorlik qobiliyati ortishi uchun katta imkoniyat yaratiladi, degani. Yuqoridagi zamonaviy kasb egalarga bo‘lgan talab shu yo‘sinda bartaraf etiladi.

Shuningdek, hududlarda kreativ industriya parklari ochilishi kreativ iqtisodiyot tarmog‘i taraqqiy etishiga xizmat qiladi. Qayd etish kerakki, bugun zamon talabiga moslashgan holda kreativ iqtisodiyotga asoslangan biznes loyihalari daromadli karriasiga ortib boryapti. Shuning uchun kreativ iqtisodiyot rivojiga davlat ham bee‘tibor emas. O‘tgan yili qabul qilingan “Kreativ iqtisodiyot to‘g‘risida”gi qonun uning sohalarga tatbiq etilishini tartibga solib beradi.

Hujjatda “Kreativ iqtisodiyot — ijodiyot, intellektual qobiliyat, shuningdek, innovatsiyalarga hamda texnologiyalarga asoslangan inson salohiyati natijasida iqtisodiy qimmatga ega bo‘lgan tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) yaratishga qaratilgan iqtisodiyot tarmog‘i”, deya ta‘rif berilgan. Uning mazmunini misollar bilan tushuntirishga harakat qilamiz.

Yaqinda “CNN” xalqaro nashri tomonidan e‘tirof etilgan, o‘zbek dasturchilari yaratgan sun‘iy intellekt asosida ishlaydigan innovatsion platforma — ingliz tilini o‘rganuvchilarga mo‘ljallangan “Speaklish” dasturi kreativ iqtisodiyot namunasidir. Sababi dasturni yaratishda insonning dunyoqarashi, kreativ fikrlashi, ingliz tilini bilish darajasi asos bo‘lib xizmat qiladi.

Xalqaro maydonda ham qiziqish ortib borayotgan dasturdan ayni paytda 50 mingdan ortiq kishi foydalanmoqda. E‘tiborli jihati, ular orasida nafaqat yurtdoshlarimiz, balki Markaziy Osiyo davlatlari, boshqa mamlakatlardan ham foydalanuvchilarning bor ekanidir.

Ushbu dastur “Microsoft” va “Google” singari kompaniyalarning startap grantlarini qo‘llab qo‘llagan. Uning ingliz tilini o‘rganishda qo‘llaniladigan boshqa dasturlardan ustunligi interaktiv va kreativ yondashuv asosida tayyorlanganidir. Kelgusida ushbu loyiha katta xalqaro bozorga chiqishini rejalashtirmoqda.

Aholi soni yil sayin ortib borayotgan O‘zbekistonda kreativ iqtisodiyotni taraqqiy ettirish yaxshi samara beradi. Chunki uning asosiy manbai inson kapitali, kadrlarning bilim-salohiyati, ijodiy qobiliyatidir. Ilgari ilm-ma‘rifat o‘chog‘i bo‘lgan mamlakatimiz keyingi yillarda ham bu borada o‘zini namoyon etmoqda. Ushbu soha bilan ko‘proq yoshlar shug‘ullanishi ham O‘zbekiston uchun ayni muddao.

Raqamli iqtisodiyotning adabiy ijod, arxitektura, loyihalash, audiovizual san‘at, moda va dizayn, ijrochilik san‘ati, muzeylar, badiiy galereyalar (ko‘rgazma), konsert-tomosha faoliyati hamda omamviy-madaniy tadbirlar tashkil etish, tasviriy san‘at, xalq amaliy san‘ati, hunarmandchilik kabi bir qator sohalarni qamrab olishi uning rivoji xalq madaniyati, dunyoqarashi o‘shishida ham muhim rol o‘ynashini bildiradi. Jumladan, ayni shu sohalarga zamonaviy, kreativ uslub va texnologiyalarni joriy qilgan holda moddiy daromadni orttirish mamlakat iqtisodiyotiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Turizm rivojlanishiga hissa qo‘shadi. Aholi vakillarining ma‘naviy dunyoqarashi kengayishi, o‘zlik hissi ortishiga xizmat qiladi.

Bir so‘z bilan aytganda, kreativ iqtisodiyot taraqqiyoti rivojlanish zarfini hosil qilib, barcha sohalarning o‘shishiga, davlat va jamiyat hayotining yangi bir bosqichga ko‘tarilishiga zamin hozirlaydi.

Sanjar ESHMURODOV
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



bo‘layotgan gumifikatsiya va degumifikatsiya jarayoni tahlili bo‘yicha qo‘llanma ishlab chiqildi.

“Agrosubsidiya” platformasi orqali 2521 nafar yerdan foydalanuvchining arizasi ko‘rib chiqilib, 2417 tasi ijobiy qanoatlantirildi. Mamlakat bo‘yicha 80 ming gektar yerga subsidiya ajratilib, moliyalashtirildi.

Hozir qishloq xo‘jaligida foydalanilayotgan yer resurslariga tabiiy va antropogen ta‘silur kuchayib bormoqda. Natijada ekinlar rivojlanishi susayib, unumdorlik va hosildorlik pasaymoqda. Suv taqchilligi tobora kuchaymoqda. Bunday sharoitda yemi asrash, tuproq unumdorligini oshirish davr talabiga aylanadi.

Bugun mamlakatimizda tuproqning sho‘rlanishi muammosi, ayniqsa, keskin. Oxirgi ma‘lumotlarga ko‘ra, mamlakatimizdagi 4,2 million gektar sug‘oriladigan yerning qariyb 1,8 million gektari turli darajada sho‘rlangan. Bu muammo qishloq xo‘jaligida hosildorlikni pasaytiradi, yerning degradatsiyaga uchrashiga olib keladi. Yurtimizda sug‘orish va suv resurslarini boshqarish tizimini yaxshilash, tuproqni boshqarishning yangi usullari, texnologik innovatsiyalar hamda qo‘llab-quvvatlovchi chora-tadbirlar ko‘rilayotgani ana shunday holatlarning oldini olishga qaratilgan.

Yer va tuproq resurslari — hamma sohaning tayanchi, asosiy ishlab chiqarish vositasi. Iqtisodiyotimiz, agrar sektorning rivojlanishi shunga bog‘liq. Shu bois, unumdor tuproq barqarorligi va holatini saqlash zaruratidir.

Shuhrat BOBOMURODOV,
Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar instituti direktori, biologiya fanlari doktori



HAYOT — HARAKAT DEMAK

Muxtorxon TOSHXO‘JAYEV,
O‘zbekiston Milliy Paralimpiya
qo‘mitasi raisi

Boshlanishi 1-betda

Yig‘ilish xalqimiz salomatligi, barkamol avlodni kamol toptirish borasidagi qator masalalar yechimiga qaratildi. Sport — sog‘lom xalq, sog‘lom jamiyatning tayanch ustunidir, degan hayotiy haqiqatga asoslangan vazifalar belgilab berildi. Ayni paytda sportga shunchaki musobaqa emas, millat genofondi, mamlakatning qudrati va obro‘-e‘tiborini butun dunyoga tarannum etadigan eng ta’sirchan vosita, eng ustuvor vazifa deb qarash zarurligi ta’kidlandi.

Biz haqli ravishda ajdodlarimiz bilan faxrlanamiz. Ular ilm-fanda ham, davlatchilik barpo etishda ham katta qudratga ega bo‘lgan. Bu inkor etib bo‘lmas haqiqat. Bugun ana shu ajdodlarga munosib avlod bo‘lishimiz shart. Buning uchun, avvalo, millatning genofondini asray olish zarur. Agar inson jismonan baquvvat bo‘lmasa, turli xastaliklarga yengiladi. Zero, Viktor Gyugo aytganiday, “Ruh qal’asini saqlab qolish uchun jism qal’asini mustahkamlash zarur”.

Shu bois, Uchinchi Renessans paydevorini barpo etishning muhim shartlaridan biri millat genofondini asrashdir. Buning uchun esa jismoniy quvvat juda muhim. Yig‘ilishda “Sog‘lom inson — sog‘lom millat” g‘oyasi umummilliy harakatga aylanishi kerakligi ta’kidlangani bejiz emas.

Inson salomatligi uchun jismoniy faollik va sog‘lom ovqatlanish juda muhim. Jamiyatimizda esa mana shu ikki jihadni keng targ‘ib etish zarur. Bu borada so‘nggi yillarda juda yaxshi natijalarga erisha oldik. Masalan, yaqin-yaqinlashda xiyobonlar, yo‘laklar deyarli bo‘sh turardi. Hozir tongda sport maydonlari, xiyobonlar, yo‘laklar jismoniy mashq bajarayotgan yurtdoshlarimiz bilan to‘la. Bunga qanday erishdik?

Avvalo, mahallalarda, ko‘p qavatli uylar oldidagi maydonchalarda sport bilan shug‘ullanishga shart-sharoit yaratildi. Bepul foydalanish uchun sport jihozlari o‘rnatildi. Aholi orasida piyoda yurish keng targ‘ib etildi. Kichik sport maydonlarini tashkil etish uchun 2018-yildayoq tadbirkorlarga imkoniyat berilgan edi. Natija esa quvonarli. Bugun eng chekka mahallalarda ham yoshlar zamonaviy mini futbol maydonlarida to‘p surmoqda. Endi bu boradagi ishlarni yangi bosqichda davom ettirishni davrning o‘zi taqozo etmoqda.

Ma’lumotga ko‘ra, O‘zbekiston aholisining 44 foizida jismoniy faollik yetishmaydi. Yana 36 foiz aholi to‘g‘ri ovqatlanish qoidalariga amal qilmaydi. Shundan kelib chiqib, Prezidentimiz mas’ullarga boshqoli va donli mahsulotlar, meva-sabzavotlar iste’molini ko‘paytirish borasida xalqchil tilda tushuntirish ishlarni olib borish vazifasini qo‘ydi. Bu bevosita odamlarning salomatligi bilan bog‘liq vazifa. Illo, mazkur vazifaning ijrosi, Gippokrat iborasi bilan aytganda, yegan ovqatimiz dori,

YOXUD “SOG‘LOM INSON — SOG‘LOM MILLAT” G‘OYASINING MOHIYATI NIMADA?

shifo bo‘lishini ta’minlash, degani. Shuning o‘ziyoq yangi O‘zbekistonda islohotlar inson qadri uchunligini isbotlaydi.

Lekin taomning shifobaxshi qolib, zararlisini tanlayotganlar ham bor. Masalan, tez tayyor bo‘luvchi va tarkibida kanserogen moddalar yuqori bo‘lgan mahsulotlardan tiyilish kerak. Chunki ular turli kasalliklarga sabab bo‘ladi. Afsuski, bugun bunday mahsulotlar savdosi ko‘paygan. Yon-atrofni kuzatgan kishi yaxshi biladi, tez tayyor bo‘ladigan mahsulotni qirg‘yoshgacha bo‘lganlar ko‘proq iste’mol qiladi. Shuning o‘ziyoq sog‘lom turmush tarzini faol targ‘ib etish zaruratini ko‘rsatadi. Buning uchun barcha darajadagi mas’ullar birdek faol bo‘lishi, jamiyatimizda shaxsiy namunani kuchaytirishimiz kerak. Shundagina oldimizga qo‘yilgan vazifa, sog‘lom ovqatlanish va jismoniy faollik targ‘iboti bilan har bir oilani qamrab olishga erishamiz.

Yana bir muhim jihat, bu masalalarni qonun darajasida mustahkamlash uchun “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi qonun tubdan qayta ko‘rib chiqiladigan bo‘ldi. Maqsad qonunni zamon talabiga moslash. Ishlarni to‘g‘ri tashkil etish uchun qonuniy asos juda muhim. Kutilayotgan qonun aholiga sog‘lom turmush tarziga amal qilish uchun keng imkoniyatlar yaratish, davr talabi bilan o‘rtaga chiqayotgan ayrim masalalarga yechim berishga qaratiladi. Shu orqali jamiyatimizda sog‘lom turmush tarzi yanada ommalashadi.

Hozir ommaviy sport musobaqalarida katta yoshdagi insonlar ishtiroki kam. Davlatimiz rahbari yig‘ilishda mazkur masalalarga ham aniq yechimlarni ko‘rsatib o‘tdi. Jumladan, endi har haftada mahallalarda ommaviy jismoniy faollik tadbirlari o‘tkaziladi.

Hududlardagi sport mashg‘ulotlari izchilligini ta’minlash juda muhim. Aynan izchillik natijadorlikni belgilab beradi. Shu bois, bu tadbirlar bir-ikki marta nomiga o‘tkazib qo‘yilmasligi shart. Yig‘ilishda mazkur jihatlar ham e’tibordan chetda qolmadi. Endi mahallalar kesimida “Aholining jismoniy faolligi reytingi” yuritiladigan bo‘ldi. Bu mutasaddilar mas’uliyatni yaxshiroq his etishida juda zarur jihat.

Yangi O‘zbekistonda islohotlarning ilk kunlaridanoq kitobxonlik keng targ‘ib etildi. Hatto yoshlarni kitob o‘qishga qiziqitirish uchun tanlov tashkil etilib, g‘olibga avtomobil beriladigan bo‘ldi. Natijada yoshlar orasida kitob o‘qishga qiziqish juda kuchaydi. Hatto nashriyotlar kitob taqdimotlarini katta bayramday o‘tkazmoqda. Bu kitob o‘qishga rag‘bat, targ‘ibot natijasi. Endi sog‘lom turmush tarzini ham xuddi shunday rag‘batlantirish, ommalashtirish maqsad qilganimizda. Ya’ni har yil yakunida eng faol sportchi oilalarga trenajyorlar beriladi. Mahallalarda faol insonlar qancha ko‘p bo‘lsa, yutuq ham shunga yarasha

bo‘ladi — bunday mahalla ahli uchun sport maydonchalari qurilib, jihozlandi. Maqsad aholining ommaviy sport bilan qamrovini kamida 15 millionga yetkazish, yurtdoshlarimiz ongiga “Sog‘lom inson — sog‘lom millat” g‘oyasini chuqur singdirishdir. Qolaversa, nogironligi bor shaxslarning sport bilan qamrovini 2 barobar ko‘paytirish maqsad qilingan.

Keyingi yillarda mamlakatimizda sportga katta e’tibor qaratilmoqda. Masalan, so‘nggi to‘rt yilda budgetdan sportga ajratilayotgan mablag‘ 1,5 trillion so‘mdan 3 trillion so‘mga oshgan. Murabbiylarning o‘rtacha maoshi 2 barobar ko‘payib, 101 ta yangi yirik sport obyekti qurilgan. Bu mablag‘lar shunchaki musobaqaga borib medal olib kelishimiz uchun sarf etilgan yo‘q. Balki sportchilar orqali sog‘lom turmush tarzini targ‘ib etish hamda yurtimizda jismoniy tarbiya bilan shug‘ullanish imkoniyatini kengaytirishga yo‘naltirilgan. Shu sabab buni, hech shubhasiz, kelajakka tikilgan sarmoya deiyish mumkin.

Mahallalardagi sport tadbirlariga nogironligi bo‘lgan shaxslar ham keng jalb etiladi. Yuqorida jismoniy quvvat ruhiy teitklikka sabab bo‘lishi harqida aytgan edik. Ha, sport insonni har jihatdan chinqitiradi. Bunga har gal adaptiv sport bilan shug‘ullanadigan insonlar bilan ko‘rishganda amin bo‘laman. Ularning yuz-ko‘zida erangi kunga, o‘ziga ko‘lgan komil ishonchni



ko‘raman. Ular orasida sport bilan shug‘ullana boshlagach hayoti o‘zgargan, jamiyatning faol a’zosiga aylanganlar talaygina. Shu ma’noda, mahallalarda nogironligi bo‘lgan shaxslarni sport tadbirlariga keng jalb etish ayrim ijtimoiy muammolarga ham yechim bo‘ladi. Ba’zida nogironligi bo‘lgan insonlar oila a’zolariga

ham ko‘nglidagi gapni ochiq aytavermaydi. Ular o‘z qobig‘iga o‘ralib, do‘stlarim yo‘q deb o‘ylaydi. Oqibatda ularda asabiylilik kuzatiladi. Adaptiv sport bilan shug‘ullanish, ommaviy sportlarda qatnashish ulardagi mana shunday stereotiplarni yengib o‘tishda kuch beradi. Lo‘nda aytganda, adaptiv sport nogironligi bo‘lgan yoshlarni uydan ko‘chaga — odamlar orasiga olib chiqadi.

2022-yildan boshlab mahallalardagi nogironligi bo‘lgan shaxslar o‘rtasida “Besh tashabbus paralimpiyasi” ommaviy sport musobaqalari uch bosqichda o‘tkazib kelinmoqda. O‘tgan 2024-yilda 16 dan 30 yoshgacha bo‘lgan 29 ming 62 nafar nogironligi bo‘lgan yosh mazkur musobaqada ishtirok etish istagini bildirgan. Ular foydalanishga qulay bo‘lgan 5tashabbus.uz sayti orqali ro‘yxatga olingan. Natijada musobaqalarga 18 ming 416 yosh qamrab olingan. Bu nogironligi bo‘lgan 18 mingdan ortiq yoshga o‘z qobiliyatini ko‘rsata olish, jamiyatda o‘rni borligini his etishga yaratilgan katta zamindir. Belgilab berilgan vazifalardan kelib chiqib, joriy yilda mazkur musobaqalarga nogironligi bo‘lgan 45 ming yoshni qamrab olish reja qilingan.

Musobaqalarni o‘tkazishdan ko‘zlangan asosiy maqsad yurtimizda ommaviy sportni keng targ‘ib etish, adaptiv sport qatnashchilariga yetarli sharoit yaratib berishdir. Masalan, “Besh tashabbus paralimpiyasi”ga



hozirlik ko‘rish uchun joylardagi sport maydonlari adaptiv sportga moslashtirilmoqda. Sport murabbiylarining malaka va ko‘nikmalari ko‘rib chiqilyapti.

Qamrovni yanada kengaytirish uchun esa “Besh tashabbus paralimpiyasi” ommaviy sport musobaqalarini o‘tkazishda ayrim

ijobiy o‘zgarishlar kutilmoqda. Jumladan, avval eshitishda nuqsoni bo‘lganlar ushbu musobaqalarda qatnasha olmasdi. Endi ular ham “Besh tashabbus paralimpiyasi” ishtirokchisi bo‘la oladi. Ayni paytda adolati ta’minlashga ham alohida e’tibor berilgan. Ya’ni endi nogironligi bo‘yicha klassifikatsiyaga kiritilmagan shaxslar ro‘yxatdan o‘ta olmaydi. Bunday sportchi musobaqalarga qo‘yilmaydi. Shu bois, parasport bilan shug‘ullanayotgan 7 mingdan ortiq sportchini nogironlik turiga qarab klassifikatsiyalashga jiddiy e’tibor berilmoqda. Yana bir yangilik, joriy yildan boshlab sport turlari soni ham ko‘paydi. Bu ham mahallalardagi nogironligi bor yoshlarni qiziqishi, imkoniyati va iste’dodidan kelib chiqib adaptiv sport kengroq jalb etishga xizmat qiladi.

Ushbu musobaqada qatnashish uchun mahallalardagi nogironligi bo‘lgan shaxslar hozirdanoq faollik ko‘rsatib, ro‘yxatdan o‘tyapti. Umuman, yurtimizda adaptiv sport rivojlanib, imkoniyatlar kengayib bormoqda. Jumladan, ilgari bu toifadagi yoshlar uchun atigi 33 ta maktabda sport to‘garaklari bor edi. Hozir bunday maktablar soni 235 taga yetdi. Natijada adaptiv sport bilan muntazam shug‘ullanuvchilar 4 karra ko‘payib, 7 mingdan oshdi. Endi mazkur yo‘nalishdagi imkoniyatlar yanada kengaytiriladi. Buning uchun hududlardagi 39 ta sport maktabi adaptiv sport turlariga ixtisoslashadi. Muhimi, bunday yoshlarni, ayniqsa, nogironligi bo‘lgan qizlarga imkoniyatni, ayniqsa, nogironligi bo‘lgan qizlarga imkoniyatga qarab boshqa sog‘lom sport guruhlarida ham shug‘ullanishga sharoit yaratiladi. Bu nogironligi bo‘lgan yoshlar qalbiday hayotsevarlik tuyg‘usini kuchaytiradi. Boshqalardan kam emasligini, aksincha, o‘z ustida ishlash, sog‘lom tengdoshlaridan ham ko‘proq natijaga erishishga bo‘lgan ishonchni mustahkamlaydi. Qalbiday orzusi sari kuchli intilishni paydo qiladi.

Hozirgi tezkor taraqqiyot davrida erishilgan yutuqlarga mahliyo bo‘lib o‘tirish yaramaydi. Davrning o‘zi bizga doim faol bo‘lish, ko‘zlangan marraga erishish uchun muttasil yangilanishlar, izlanishlar qilishni talab etmoqda. Zero, qadimgi yunon tarixchisi Plutarx “Hayot harakatni talab qiladi”, degan edi.

Shundan kelib chiqib, adaptiv sport bo‘yicha ham qator ijobiy o‘zgarishlarga start berildi. Jumladan, nogironligi bo‘lgan yoshlarni sport bilan qamrab olish va natijadorligini ta’minlashda yangicha yo‘l tutiladi. Buning uchun Gersen nomidagi Rossiya davlat pedagogika universiteti bilan hamkorlik qilinadi. Uning Toshkentdagi filialida adaptiv sport bo‘yicha alohida fakultet ochiladi. Hozirgi davdda har bir ishda ilmiy yondashuv juda muhim. Busiz biror arzigulik natijaga erishish mushkul. Shu sabab hamkorlik doirasida natijadorlikni oshirishga qaratilgan

ilmiy metodika va standartlar ishlab chiqiladi. Bu esa adaptiv sportga jalb etishda zamonaviy standartlardan foydalanish imkonini beradi.

Xo‘sh, bugun adaptiv sportchilar uchun maydonda qanday qulayliklar bo‘lishi kerak? Ularga sportni o‘rgatayotgan murabbiylar nimalarga e’tibor berishi, mashg‘ulotlarning o‘quv metodikasidan tortib, uning xulq-atvorigacha bo‘lgan barcha jihatlar bugun ilmiy asosni talab etadi. Gersen nomidagi Rossiya davlat pedagogika universiteti bilan hamkorlik ana shu ishlarni yangi O‘zbekiston sharoitida, xalqimizga xos jihatlarini o‘rganib, ilmiy asoslash imkonini beradi.

Endi zamonga mos ravishda parasport turlari bo‘yicha terma jamoalarni shakllantirish tartibi ham o‘zgartiriladi. Ya’ni yoshlar faqat musobaqa natijasiga ko‘ra emas, balki sport normativlarini bajarishga qarab ham terma jamoaga qabul qilinadi. Mazkur o‘zgarish adaptiv sport bilan shug‘ullanayotgan yoshlarga o‘z iste’dodini to‘la namoyon etish imkonini beradi. Bunda adolatli ish tutish uchun nogironligi bo‘lgan sportchilarning ko‘rsatkichlari monitoring qilib boriladigan alohida onlayn platforma yaratiladi.

Davlatimiz rahbari o‘tkazgan yig‘ilish parasportchilar uchun quvonchli xabarlariga boy bo‘ldi. Masalan, endi musobaqa va sport yig‘inlari tashkil qilishda olimpiya va paralimpiya tizimiga o‘tilishi aytiladi. Bu qayerda chempionat bo‘lsa, unga yonma-yon parasport musobaqasi ham o‘tkaziladi, degani. Mazkur amaliyot sabab haqiqiy inkluziv tizim yaratiladi. Nogironligi bor sportchilar uchun ishonch va rag‘bat bo‘ladi. Shu o‘rinda Alisher Navoiyning mashhur baytini eslab o‘tish joiz. Hazrat inson qalbini muqaddas sanab:

“Kimki bir ko‘ngli buzug‘ning
xotirin shod aylagay,
Oncha borkim, Ka’ba vayron bo‘lsa,
obod aylagay”, deb yozadi.

Adaptiv sportga bunday katta e’tibor sabab minglab yurtdoshimizning ko‘ngli shodlikka to‘ladi. Ularning ortidan millionlab qalblar obod bo‘ladi. Mazkur jihat ham yangi O‘zbekistonda islohotlar inson qadri uchun olib borilayotganini ko‘rsatadi.

Sportdagi islohotlar natija bermoqda. Jumladan, 2024-yilda Parijda o‘tkazilgan Paralimpiada musobaqalarida parasportchilarimiz quvonarli natijalar ko‘rsata oldi. Ayniqsa, qariyb 30 yil oldingi rekordni yangilagan Asila Mirzayorova, uch karra Paralimpiya chempioni Husniddin Norbekov kabi sportchilar jasorati yurtimizdagi adaptiv sport bilan shug‘ullanadigan yoshlarga motivatsiya bergani rost. Bugun ko‘plab yoshlarimiz Paralimpiya chempionlariga havas qilib, ularga o‘xshash uchun ham sport bilan shug‘ullanishga kirishgan. Buni davlatimiz rahbari ham e’tirof etdi. Ushbu natijalar yoshlarimiz, ota-onalarning sportga munosabatini o‘zgartirgani, ko‘p yoshlarimizda “Men ham chempion bo‘laman”, degan shijoat paydo bo‘lganini ta’kidladi.

Endigi navbat esa 2028-yilda Los-Anjelesda bo‘ladigan Olimpiya va Paralimpiya o‘yinlarida bo‘ladigan Olimpiya va Paralimpiya o‘yinlarida yuqori natijadorlikni ko‘rsatishga qaratilgan. Yig‘ilishda mazkur musobaqalarga tayyorgarlik doirasidagi ishlar haqida ham to‘xtalib o‘tiladi. “Los-Anjeles — 2028” Olimpiya va Paralimpiya o‘yinlarida medallar sonini ikki karra oshirish maqsadida qator vazifalar belgilab berildi. Buning uchun kerakli shart-sharoit yaratiladigan bo‘ldi. Los-Anjelesda ham sportchilarimiz ko‘zlangan natijaga erishishiga ishonamiz.

Bugun yangi O‘zbekiston yoshlarining sport bilan shug‘ullanishga bo‘lgan shijoati kishini quvontiradi. Chunki aql-idrokli bo‘lishni istagan odam o‘z tanasini parvarish qilishi kerak. Bu inkor etib bo‘lmaydigan haqiqat. Tana parvarishi esa nafaqat sport, balki sog‘lom ovqatlanishni ham talab etadi. Oldimizda mana shu ikki jihadni keng targ‘ib qilishga qaratilgan ishlarni to‘la odat etish vazifasi turibdi. Shu orqali Uchinchi Renessans paydevorini barpo etishga hissamizni qo‘shgan bo‘lamiz. Zero, bunday yuksak marrani sog‘lom millat bilangina zabt etish mumkin. Ha, endi “Sog‘lom inson — sog‘lom millat” g‘oyasi atrofida birlashishimiz kerak. Buning uchun juda katta qahramonlik talab etilmaydi. Shunchaki, o‘z sog‘lig‘imizni o‘ylab, sport bilan shug‘ullanib, to‘g‘ri ovqatlanishni tashkil etishimiz kifoya.

Munosabat

Mamlakat yuksak bilimli, salohiyatli yoshlar bilan rivojlanadi. Yurtimizda zamonaviy fikrlaydigan, professional tayyorgarlikka ega yangi avlod kadrlarini tayyorlash, huquq va manfaatlarini ta’minlash davlatimiz siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan. Prezidentimizning shu yil 14-fevralda yoshlar bilan samimiy muloqoti buning yaqqol isbotidir.

Uchrashuv avvalida yoshlar “xalqimizning oltin fondi” deb atalgani bejiz emas. Zero, farzandlari bilimli, iste’dodli mamlakatning istiqbolli, albatta, yorug‘ bo‘ladi. Ta’kidlanganidek, O‘zbekiston aholisining 60 foizini yoshlar tashkil etadi. Har yili mehnat bozoriga 600 mingdan ortiq yigit-qiz kirib kelmogda. 2030-yilga borib, bu ko‘rsatkich 1 millionga yetadi.

Endi Prezidentimizning tegishli qarori bilan oliy o‘quv yurti bitiruvchilarining bandligini

“GARVARDCHILAR MAKTABI” yoshlar iqtidorini yuzaga chiqaradi

ta’minlash bo‘yicha yangi tizim joriy etiladi. Buning uchun Milliy bankka 100 million dollar yo‘naltirilib, yoshlarning tashabbus va g‘oyalarni loyihaga aylantirish bo‘yicha bank xizmatlari yo‘lga qo‘yiladi. Shuningdek, bitiruvchilarni ish bilan ta’minlash bo‘yicha hokimlar, bank va korxona rahbarlaridan iborat komissiya tuziladi.

Hozir dunyodagi nufuzli universitetlarda 1500 dan ziyod o‘zbekistonlik tahsil olayotgani, avvalgi 25 yilda davlat hisobidan 800 yigit-qiz xorijga o‘qishga ketgan bo‘lsa, birgina “El-yurt umidi” jamg‘armasi orqali so‘nggi 7 yilda bu ko‘rsatkich qariyb uch barobar oshib, 2300 vatandoshimiz shunday imkoniyatga ega bo‘ldi.

Yig‘ilishda chekka hududlarda chet tillarga ixtisoslashgan o‘quv markazlari ochgan malakali yoshlarga 120 million so‘mgacha foizsiz ssuda berilishi, shuningdek, xususiy o‘quv markazlarida xorijiy tillarni o‘rganadigan yoshlarga to‘lovi “2+6” shaklida qoplanishi, kambag‘al oilalar farzandi foizsiz ta’lim krediti, qo‘shimcha grant, shartnoma to‘loviga yordam orqali o‘qishga rag‘batlantirilishi ma’lum qilindi. Bu barcha

yoshlar va ota-onalar uchun quvonchli xabar bo‘ldi. Zero, buning natijasida ko‘plab yigit-qizlarning orzu-istagi ro‘yobga chiqadi. Ular ham tengdoshlari qatori bilim olish, yurt rivojiga hissa qo‘shish imkoniga ega bo‘ladi.

Davlatimiz rahbari yoshlarning taklifini ma’qullab, ularni har doim qo‘llab-quvvatlashga tayyor ekanini bildirayotgan, yoshlarga keng imkoniyatlar yaratilayotgan bir paytda biz — ta’lim sohasi vakillari ham islohotlarni qo‘llab-quvvatlash va amalga oshirish yo‘lida kuch-g‘ayratimizni ayamaymiz.

Xususan, Andijon davlat chet tillar instituti xorijiy tillarni o‘rganish istagidagi yoshlarni kengroq qamrab olish maqsadida viloyatda “Garvardchilar maktabi”ni tashkil etish tashabbusi bilan chiqmoqda. Ushbu tashabbus orqali hududdagi 10 mingdan ortiq yigit-qiz xorijiy tillarni o‘rganish hamda kelgusida o‘zi istagan o‘qiyohlgalarga kirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Institutimiz bu borada yoshlar iqtidorini ro‘yobga chiqarishga alohida e’tibor qaratadi.

Britaniya kengashining yurtimizdagi vakolatxonasi hamda AQSHning mamlaka-



timizdagi elchixonasi bilan hamkorlikda “Garvardchilar maktabi”ga tajribali o‘qituvchilarni jalb qilgan holda, innovation pedagogik metodikalar va raqamli resurslardan, xususan,

interaktiv onlayn platformalardan foydalaniladi. IELTS, TOEFL va boshqa xalqaro imtihonlarga tayyorgarlik uchun maxsus kurslar tashkil etiladi. Xalqaro sertifikatlash markazlari bilan hamkorlik

qilinadi. Bunda turli yosh toifalari uchun maxsus dasturlar ishlab chiqiladi. O‘quvchilar va talabalariga interaktiv platforma yaratish ko‘zda tutilmoqda.

Yoshlarning iqtidorini ro‘yobga chiqarish va chet tillarni o‘rganishini rag‘batlantirish maqsadida viloyatimizdagi maktablarning 9-va 11-sinf o‘quvchilari o‘rtasida an’anaviy tashkil etiladigan “Rektor olimpiadiasi” qamrovini avvalgi yillardagi 5 mingdan 10 mingga yetkazishni rejalashtirmoqdamiz.

Shuningdek, maktablarda institutimiz kafed-ralariga birlashtirilgan chet tillarga ixtisoslashgan sinflar ochishni ham ko‘zlagamiz. Bu bizga qishloq va chekka hududlardagi iqtidorli yoshlarni aniqlash va qo‘llab-quvvatlash imkonini beradi.

Mamlakatimizda yoshlarga yuksak e’tibor ularning sifatli ta’lim olishi va imkoniyatlarini to‘liq ro‘yobga chiqarishga xizmat qiladi. O‘z navbatida, yigit-qizlarimizning keng bilim, tafakkur va tajribaga ega bo‘lishi O‘zbekistonning iqtisodiy hamda ilmiy salohiyatini yuksaltiradi, jamiyatimizni yangi bosqichga olib chiqadi. Amalga oshirilayotgan barcha tashabbus va islohotlar kelajakda o‘z samarasini berishiga ishonchimiz komil. Biz esa belgilangan maqsad va vazifalar ijrosini sifatli, samarali ta’minlashda tashabbuskor bo‘lishimiz lozim.

Dilshodbek RUSTAMOV,
filologiya fanlari doktori,
professor

Zarrabin

Donishmandlardan biri “Otaning farzandiga qilgan eng katta yaxshiligi oʻz ayoliga koʻrsatgan hurmati, mehribonligidir”, degan ekan. Qaniydi, shu fikr yirik harflarda hammaning har kuni koʻzi tushadigan joylarga yozib qoʻyilsa! Qaniydi oilalarda shu fikrni samimiy takrorlab turadigan bir vosita boʻlsa! Qaniydi bolalar bogʻchalaridan boshlab maktablar, oliy taʼlim muassasalarida oʻqitiladigan oʻquv dasturlari mohiyatiga shu fikr ham singdirilsa! Ayni gaplarni ayol ekanim, onalarning sharafini oshirish uchun emas, yurtimizning kelajak avlodi chin maʼnoda baxtli-saodatli boʻlishini oʻylagan inson sifatida aytayman.

OʻY QUYOSH DAN NUR OLAR



Muhtarama ULUG'OVA, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi

Ommaviy axborot vositalarida, ijtimoiy tarmoqlarda har kuni oʻqiyotganimiz, koʻrayotganimiz, odamlardan yoʻl-yoʻlakay xohlasak-xohlamasak eshitayotganimiz oilaviy notinchliklar, ertalarning ayoliga bepisandligi, zugʻumi, shafqatsizligi, bevafoqligi, dangasaligi, shuningdek, ayollarning turmush oʻrtogʻiga nopisandligi, vafosizligi, mehrsizligi kabi xato va illatlarning istisnosiz oqibatlari — notinchlik, urish-janjal, arazlashlar, orqavorotdan pinhon-u oshkor boʻladigan tuhmatu gʻiybatlar natijasi. Oilaviy hayot sahnasidagi bunday muhitning sababchilari, birinchi navbatda, ota-ona, maʼnaviy, ruhiy azoblanuvchilari, qurbonlari esa shu ota-onaning farzandlaridir. Piching va kesatiqlar, baqir-chaqirlar, tortishuvlar bilan oʻzini haq deb bilgan ota yoki ona ichini toʻkib olganidan keyin ehtimol, muayyan muddat yengil tortar, ammo oʻrtadagi qorakoʻzlar ikki oʻl orasida qolgan kabi u yon-bu yonga termiladi. Aslida, ular nima ham qila oladi, gʻazab otiga minib, soʻzi-yu koʻzidan oʻt sochib turganlarning biri otasi, ikkinchisi onasi. Farzandlar uchun ulardan yaqin odam yoʻq! Lekin oʻsha daqiqalarda ikkisi bir-biriga teskari ikkita olam boʻlib turibdi. Dilbandning ota-onasiga muhabbat, ishonchi, ikki aziz insoniga bogʻliq orzular bilan urib turgan yuragini ikkiga boʻlish mumkinmi?

Oilaviy kelishmovchiliklar, ajralishlar tobora ortib, jamiyatimizning ogʻriqli muammolaridan biriga aylandi. Buning oqibatida tirik yetimlar — qalbi kemtiklar koʻpayib boryapti. Muammoga bunday yondashuv, yaʼni yangilik boʻlmagan gaplarni tinmay takrorlashdan naf yoʻqligini rasmiy maʼlumotlardagi raqamlar yildan yilga takror-takror taʼkidlab turibdi.

Keling, ayni masalaga yuqorida keltirilgan “Otaning farzandiga qilgan eng katta yaxshiligi oʻz ayoliga koʻrsatgan hurmati, mehribonligidir” degan gap mohiyatidan kelib chiqib tasavvur etaylik.

Yorugʻ dunyoga kelib, atrofga qaragan aksariyat chaqaloq, birinchi navbatda, otasi bilan onasini koʻradi. Aslida, “yangi mehmon” hali ona qornida ekanida onasining yonidagilarni ovozidan tanishini, onasining ular bilan munosabati paytidagi kayfiyatidan kelib chiqib, shod yoki gʻamgin boʻlishini zamonaviy fan ham tasdiqlagan. Shunday boʻlgach, toʻrt muchasi sogʻ-salomat, koʻrib, eshitib, yonida boʻlayotgan voqealarni kuzatib turgan goʻdakni hech narsani tushunmaydi, hali u juda kichkina deb oʻylash xatodir.

Koʻz oldimizga keltiraylik: jismi, ruhi pokiza, faqat vujudi kichkina, xolos, lekin kattalarning barcha xislati fitratida kurtak yoza boshlagan bolajonning nigohi roʻparasida tabassum bilan, koʻzlaridan mehr, yuzidan quvonch yogʻilib turgan otasiyu onasiga tushdi. Kunlar, haftalar, oylar, yillar oʻtadi. Bahor yozga, yoz kuzga, kuz qishga aylanib, tabiatda oʻzgarishlar yuz beradi. Bola turli qiyofali va turfa tabiatli boboyu buvilarni, amma-yu xolalarni, togʻ-a-yu amakilarini tanidi. Lekin ota-onasining koʻzi, soʻzi, hissiyoti oʻzgarmadi. Ular goʻyoki bitta yaxlit vujud-u qalbga aylanib dilbandni erkhladi, soʻzlashga oʻrgatdi, ikkisi mehr bilan parvona boʻldi, qoʻliga non-u kitob tutdi. Kichkintoyning quvnoq, qiziquvchan, harakatchan, arazu inijliklardan yiroq, qalbi uygʻoq va musaffo boʻlib oʻsishi uchun oilaning bunday moʻtadil, ilhomboxsh,

qalbni ulgʻaytiruvchi muhitidan ortiq yana nima boʻlishi mumkin?

Bolalik, oʻsmirlik, oʻquvchilik, talabalik yillari farzandlarga ilm-hunar eshiklarini ochish bilan birga ular oldiga qator sinovlar, talablar, tanlovlar qoʻyadi. “Oʻqishni davom ettiraymi yo hunar oʻrganaymi?”, “Kelajakda kim boʻlsam ekan?”, “Qayerda oʻqisam yaxshi boʻladi?” kabi savollar oʻsayotgan muhitiga qarab qay bir bolani yetti, qay birini esa oʻn yetti yoshidan oʻylantira boshlaydi. Lekin har qanday holatda ham oʻgʻil-qiz (ayniqsa, bizning mentalitetda) bu masalani ota-onaning aralashuvvisiz, maslahati-yu yordamisiz hal qilishi qiyin. Bundan tashqari, ota-onaning ham “Bolam falonchi boʻlsaydi”, “Manovi kasbni egallasaydi” degan niyati barcha oilada ham ikkinchi darajali emasligini hisobga olsak, ayni masala atrofida oʻz-oʻzidan uch qutb paydo boʻladi.

Bir hayotiy misol keltirsam. Boshlangʻich sinfda oʻqiydigan oʻgʻlini ona kurash mashgʻulotiga olib bormoqchi boʻldi. Ota moddiy tomondan qiyinchilik boʻlishini aytib, bunga roʻyxushlik bermadi. Ona toʻlovni oʻz zimmasiga olib, bolani murabbiyga topshirib keldi. Hech qancha vaqt oʻtmay, murabbiy yangi shogirdining qobiliyati, intiluvchanligi haqida gapira boshladi. Faqat ota “Oddiy odamning bolasidan chempion chiqarmidi?” degan gapni zaharxanda bilan takrorlab qoʻyar, xotini bilan bu haqda tez-tez tortishib jerkib tashlardi. Oʻgʻli mashgʻulotga ketayotganida ham, qaytib kelganida ham yuzida norozi kayfiyat boʻlardi. Bora-bora bolaning qiziqishi soʻnib, oxiri bir kuni onasiga mashgʻulotga uzil-kesil bormasligini aytdi. Ancha vaqtgacha murabbiy qoʻngʻiroq qildi, shunday iqtidorli bolaning kutilmagan qaroridan xafa boʻldi. Balki bola uchun otasining doimiy noroziligi ostida yurgandan koʻra mashgʻulotga bormay qoʻyish oson boʻlgandir...

Shunga oʻxshash holat oilalarda uchrab turadi. Bolaning kiyinishi, qiziqishi, doʻst tanlashi, uy ishlaridagi ishtiroki kabi masalalarda otaning tanlovi onaga, onaning taklifi otaga yoqmaydi. Farzandning xohishi



oiladagilardan oʻzini chetga tortadi. Natijada boshqa qiziqish, intilishlari ham shu tarzda ichida qolib ketishi, juvonmarg boʻlishi mumkin. Achinarlisi, bu oqibatlarga kattalar har doim ham oʻz vaqtida eʼtibor berib, xatoni toʻgʻirlashga urinmaydi-da, yillar oʻtib bolasining yaxshi oʻqimaganidan, dangasaligidan, loqaydligidan, boshqa bolalarga oʻxshamasligidan noliydi.

Yuqoridagi noxush manzara ota-onaning gapi bir joydan chiqadigan, biri ikkinchisini sabru qiziqish bilan tinglaydigan, birining fikri yoki boshlagan ishini ikkinchisi qoʻllab-quvvatlab, har bir masala maslahat va oʻzaro kelishuv asosida hal etiladigan xonadonlardagi holat bilan solishtirib koʻrilsa, qaysi muhitdagi bolalarning yaxshi oʻqishi, qiziqqan fani yoki sohasi boʻyicha imkoniyatlardan toʻliq

qiziydi. Baʼzan turmush quradiganlar bir chekkada qolib, ota oʻzining qarichi-yu qarashlari, ona oʻzining orzu-havaslaridan kelib chiqib kuyov yoki kelin tanlaydi. Shunday paytda kattalar orasida “xotinlarning sochi uzun, lekin aqli kaltaligi”, “kaltafahm”ligi, erkaklarning “oʻzi roʻzgʻorni qoyillatib qoʻymay, qiziga ham shunday taqdimi ravo koʻrayotgani” kabi gaplar oʻrmlaydi, uydan hovliga, devor oshib koʻchaga chiqadi.

Ikki tomondagi qudalar xursand, ota-ona rozi, qalbi faqat ezgu duolar bilan boyigan yoshlar nikoh-u muhabbat rishtalari bilan bogʻlanib, yangi hayotga qadam qoʻyishi chin saodat emasmi?

Mulohazali, yetti oʻlchab bir kesadigan kishilar jon-u jigaridan boʻlgan bolasining umr savdosiga befarq qaramaydi. Bir umr churq etgan ovoz chiqmagan oilalarda ham qizni uzatish, oʻgʻil uylantirish arafasida kutilmagan savollar, muammolar, hammaga ham aytib boʻlmaydigan ishlar paydo boʻlishi mumkin. Lekin bunday xonadon egalari, oʻz fazilatiga koʻra, bir-birini aybdor qilmaydi. Aksincha, bosiqlik, masala mohiyatini oʻrganish, oʻzaro kelishuv bilan chiroyli yechim izlaydi. Oqibatda kimdir yurak hovuchlab xavotirda yashamaydi, aybdor-u hurmatsiz boʻlmaydi, taʼna-yu malomatga qolmaydi. Zero, oqil, bagʻrikeng, muhabbatli, muruvvatli insonlar turli vaziyatda oʻzining nomi oppoq boʻlishi emas, noxush holat kelib chiqmasligi va undan kimdir aziyat chekmasligi uchun jon kuydiradi.

Donishmand fikrini yana takrorlayman: “Otaning farzandiga qilgan eng katta yaxshiligi oʻz ayoliga koʻrsatgan hurmati, mehribonligidir”.

Bu hikmatni oʻzicha sharhlab, “Ha endi omadi kelib aqlli-hushli, farosatli, yoqimli, gap uqadigan, chevar-u pazanda, xushmuomala, mehr-oqibati xotin boʻlsa, uni hurmat qilasan, mehribon boʻlasan-da. Salomga qarab alik olinadi. Qaniydi hamma xotin shunday boʻlsa”, deydiganlar oz emas.

Bir misol oʻtmas. Erka qizni kelin qilganlar koʻp oʻtmay, yuklari bilan ota uyiga tashlab ketdi. Insofga chaqirganlarga: “Hay-hay, Xudo saqlasin. Bir adashdik, endi ostonamni bostirmayman”, dedi qaynona. Qiz koʻhlik edi, uni toʻyda koʻrgan boshqa bir ona farzand koʻrmagani uchun xotinidan ajrashgan oʻgʻliga olib berdi. Koʻp oʻtmay, qiz yana onasining yoniga serqatnov boʻlib qoldi. U kuyovning juda talabchanligiga bardosh berolmayotgandi. Bu turmushi ham boʻladiganga oʻxshamasdi. Oʻrtaga qizning buvisi tushdi, kuyov bilan

gaplashdi, yigitingni ogʻir-bosiqliqi, ishlarining puxtaligini mehr bilan eʼtirof etib, nabirasining taqdiridan juda xavotirda ekanini aytdi. Kuyov momoqaynonasiga: “Xudo xohlasa, gapingizni yerda qoldirmayman” deb xotinini oʻzi bilan olib ketdi. Yana uncha-muncha diydoyolar oʻtgandek boʻldi, ammo kuyov soʻzida turdi — rafqasini mahkam ushladi. Shu orada Yaratganning mukofotini qarangki, kelin homilador boʻldi. Kuyov bilan onasining xursandligini koʻrsangiz edi! Kelinni yer-u koʻkka ishonmay qoʻyishdi, uning erkakliklari, oʻylab-oʻylamay gapirib yuborishi ular uchun Parvardigor berib turgan neʼmat oldida arzimas, oʻtkinchi, xushboʻy sara atirgunning mitti tikanchalaridek boʻlib qoldi. Hozir oʻsha kelin kiyimidan tortib, gap-soʻzigacha, yuz ifodalargacha oʻzgarib, yanayam xushroʻy, yoqimli boʻlib ketgan. Birinchi farzandi qiz edi, yaqinda oʻgʻil koʻrganini aytishdi.

Ha, inson bolasi farishta emas, tugʻilishidan adashishga, xato qilishga moyil. Kimchi beshikdan qabrgacha oʻqishimiz, oʻrganishimiz shart. Kimdir qoyillatib bajargan ishga kimdir noʻnogʻ boʻlishi, kim til bilan-u kim qoʻl bilan koʻngil olishi, fahm-u idrokda kim oʻtkir-u kim oʻtmas boʻlishi, kimdir oʻynab-kulib bajargan vazifani kimdir uddalay olmasligi tabiiy hol. Yaratilishdan hammamizning aqliy qobiliyatimiz ham turli darajada. Shunday ekan, yon-atrofimizdagi har bir odamning oʻziga xosliklarini yaxshi bilmay turib, unga oʻz istagimiz, qolipimiz darajasida talab qoʻyishimiz toʻgʻri emas.

Bir rivoyatda aytilishicha, ustozning talabalaridan biriga munosabati, mehri boshqachaligini sezib yurgan toliblar oxiri muallimdan buning sababini soʻrabdi. Shunda ustoz oppoq qogʻoz oʻrtasiga qora qalamda nuqta qoʻyib, savol bergan talabalardan “Nimani koʻryapsiz?” deb soʻrabdi. “Oq qogʻoz oʻrtasidagi qora nuqtani”, deb javob beribdi ular. Keyin ustoz mehri tushgan shogirdiga ham shu savolni beribdi. “Oppoq sahifa koʻryapman, — debdi u. — Oʻrtasida kichkinagina, bilinar-bilinas nuqtacha”. “Tushudingizmi, — debdi donishmand ustoz. — Sizga ham ibratli tomoni — bu tengdoshingiz, birinchi navbatda, hamma narsaning oq, musaffo, xayrli tomonini koʻradi...”.

Yoshligimda otam ishdan qaytadigan payt biz uchun goʻyo bayram boʻlardi. Koʻchayu hovlilarni qaytadan supurardik, choynak-piyolalarni yaxshilab yuvardik, chiroyli koʻrpalchalar solinardi. Jilmayib

kirib kelgan otajonimga peshvoz chiqardik. Yillar anglatib bordi: maktabda darslarni jon qulogʻim bilan tinglashim, hamma darsda javob berishga tayyor boʻlib aʼlo baholar olganim, kitoblarni ifodali oʻqishni yaxshi koʻrganim, tikkan doʻppilarim chiroyli chiqishi uchun uringanlarim — bular, avvalo, doim bizga: “Yaxshi oʻqinglar. Tirikligimda olgan bilimlaring — mendan qoladigan eng katta meros”, deb nasihat qiladigan, yaxshi ishlarimizdan quvonadigan otajonimning eski doʻppisiniyam tashlab yubormay, tepadagi tokchada asraydigan onamni xursand qilish uchun ekan. Ana shu mehr dunyoga quvonib qarashim, tengdoshlarim ichida yelkamni tik tutib yurishim, fikrlarimni dadil aytishim uchun qoʻllab turdi. Angladimki, eridan mehr-u eʼzoz koʻrmagan xotinlarning koʻpi oʻzi bilib-bilmagan, oqibatini oʻylab ham koʻrmagan holda alamlari bolalaridan oladi — jerkiydi, siltaydi, qozon-tovoqniyam suvga tashlab qoʻyishi va hatto necha kunlab ota uyiga ketib yuborishi ham koʻp uchraydi. Xonadondagi notinchlik, urish-janjal bolalarning koʻchaga gʻamgin, ruhiy toʻliqlik bilan chiqib ketishiga, kun boʻyi shuning taʼsiridan chiqolmay yurishiga, kechki payt uyiga yuragi bezillab qaytishiga sabab boʻladi.

Hayot koʻrsatadiki, tinch-totuv, el orasida faqat yaxshi jihatlari bilan tanilgan oilalar aʼzolarida mana shu fazilat ustun. Ular bir-birining turmushda birinchi darajali muhim boʻlgan toʻgʻri ishlari, odatlari, feʼl-u atvorlarini qadrlab, xato va kamchiliklarini tushunadi, kelishadi, ularni tuzatish mumkinligiga ishonadi, kechiradi. Buni tabiiy holat deb qabul qilib, gina-yu adovat saqlab yurmaydi.

Er yigitlar vatanning togʻdek, metindek himoyachi, posbonlari. Ana shu togʻdek bardosh, metindek iroda, birinchi navbatda, ularning jismidan emas, qalbidan quvvat oladi. Tarixda ozchilik boʻla turib, oʻzidan bir necha barobar koʻp dushman ustidan gʻalaba qozongan vatan himoyachilari, muzaafflar haqida koʻp eshitganmiz. Ularning qalbidagi ona tuproqqa, ona xalqqa cheksiz muhabbat, chin sadoqat, el-yurt ozodligi uchun fidoyilik bilaklar, yuraklariga kuch, shijoat baxsh etgan.

Oila ham vatan ichidagi moʻjaz vatani, jamiyatning oltin haqiqati. Uning buzilishi Arshni larzaga keltiradi, jamiyat darz ketadi. Bu moʻjaz vatanning ham barqarorligi, himoyasi, mustahkamligi, birinchi navbatda, erkaklarning zimmasida. Ularning jism-u ruhiyatida mana shu masʼuliyatga, sharafga loyiq salohiyat, tafakkur, bagʻrikenglik, mulohazakorlik, oqillik, vazminlik bor. Ana shu fazilatlarini bilan, eng avvalo, oʻz xonadonlarida muvozanat, moʻtadillik, kichikni va ojizni anglashu qoʻllab-quvvatlash muhitiga bosh boʻlsa, nur ustiga nur!

Mana shunday birdamlik boʻlgan oila qoʻrgʻonini moddiy taqchilliklar, tashqaridan boʻladigan tahdidlar buza olmaydi va aksincha, birdamlik boʻlmasa, oila muammolariga tashqaridan aybdor izlash nooʻrindir.

Zarracha yaxshilik ham va zarracha yomonlik ham, albatta, qaytishi haqidagi ulugʻ hikmatga amal qilishni har birimiz har kuni qadrdon uyimizdan boshlab koʻrishimiz mumkin. Togʻ orasida bitta tovushga toʻrt tomondan gumburlab, jaranglab aks sado qaytgani kabi oila boshligʻining har bir samimiy tabassumi, xotinu farzandlaridan har bir shukronasi, ularga koʻrsatgan nuri mehru muhabbati, astoydil saxovati butun hayoti davomida irmoqlari joʻshqin daryo kabi koʻpayib qaytaveradi!

Hazrat Mir Alisher Navoiy mashhur ruboiylarida otani quyoshga, onani oyga qiyos etadi — bu ramziylik botini ham zohiriy jihatdan shu qadar ulugʻvor mutanosib!

Quyosh (ota) qancha yorqin charaqlasa, oy (ona) ham undan shuncha koʻp nur-harorat oladi va uning atrofidagi yulduz (farzand)lar olamni charogʻon etadi.

“Yangi Oʻzbekiston” va “Правда Востока” gazetalarini tahririyati” DM

MUASSIS:
Oʻzbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qoʻlyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlari chop etilishiga “SHARQ” NMAK masʼul.
Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan roʻyxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 246.
37560 nusxada bosildi.

Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qogʻoz bichimi A2.
Bahosi kishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.

Navbatchi muharrir: Bashorat Yunusova
Musahhih: Sherzod Mahmudov
Dizayner: Zafar Roʻziyev

Manzillimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz koʻchasi, 85-uy

Oʻza yakuni — 23:00 Topshirildi — 23:45